



DIE DEUTSCHE REDETEILE

QO'QON-2020

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'rta maktab o'quvchilari, akademik litseylarda tahsil olayotgan iqtidorli talabalar, oliy o'quv yurtlariga kiruvchi abituriyentlar va nemis tili o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:

F.M.Tillaxodjayeva – QDPI Fakultetlararo chet tillar kafedrası dotsenti

Muallif:

Sh.S.Xatamqulova – QDPI Chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Z.Mamajonov- Andijon davlat Universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD)

SH .N.Ubaydullaev- NamDU Fakultetlararo chet tillar kafedrası dotsenti, p.f.n.

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti O'quv –Uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqillikka erishgandan so'ng davlatimizda barcha sohalarda ulkan o'zgarishlar bo'lmoqda shu jumladan, ta'lim sohasida xam misli ko'rilmagan yutuqlarga erishmoqdamiz. Muhtaram prezidentimizni hozirgi kunda chet tilini o'rganishga katta e'tibor bermoqdalar va ta'lim sohasida bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012 yil 10 dekabrdagi «Chet tillini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risidagi» PQ 1875-sonli qarori ko'rsatmalarini amalga oshirish yo'lida qo'yilgan muhim qadamlardan biridir. Chet tilini o'rganishda til grammatikasi, fonetikasi va leksikasi muhim rol o'ynaydi.

O'quv qo'llanmaning yozishimizdan maqsad nemis tilini mustaqil o'rganuvchilarga va talabalarga qulay imkoniyat yaratishdir. Chunki o'quv - uslubiy qo'llanmada grammatik qoidalarga batafsil to'xtalib o'tilgan va mustahkamlovchi mashqlar yetarli berilgan. Bu esa nemis tilini o'rganuvchilar uchun ham qulaylik yaratadi.

MORFOLOGIYA (DIE REDETEILE)

NEMIS TILIDA 10 XIL SO'Z TURKUMI BOR :

- I. OT (das Substantiv)**
- II. ARTIKL (der Artiki)**
- III. OLMOSH (das Pronomen)**
- IV. SIFAT (das Adjektiv)**
- V. SON (das Numerale)**
- VI. FE'L (das Verb)**
- VII. RAVISH(das Adverb)**
- VIII. PREDLOG(das Praposition)**
- IX. BOG'LOVCHI(die Konjunktion)**
- X. UNDOV(die Interjection)**

OT, OLMOSH, SIFAT, SON, FE'L, RAVISH va **UNDOV** mustaqil so'z turkumlaridir. Artiki, predloglar va bog'lovchi esa mustaqil qo'llanmaydi. Ular yordamchi so'z turkumlaridir.

I.OT (das Substantiv)

Ot predmet yoki ish –harakatning nomini bildiradi,masalan:

die Schule, der Bruder, das Haus.

Nemis tilida otlarda rus tilidagi kabi uch xil grammayik rod bo'lib ularning oldida odatda rodni ko'rsatuvchi der ,die ,das artikllari ishlatiladi.

Nemis tilida otlar hamma vaqt bosh harf bilan yoziladi.

§ 1. Otlarning ma'no jihatidan turlari.

Otlar ma'nosiga qarab ikki turga bo'linadi: konkret otlar (die Konkreta) va absrakt otlar (die Absrakta).

Konkret otlar quyidagi turlarga bo'linadi:

A) Turdosh otlar (die Gattungsnamen):

der Student, die Stadt, die Straße

B) Jamlovchi otlar (die Sammelnamen)

die Herde (poda) das Volk (xalq) das Gebirge (to`g tizmalari)

C) Atoqli otlar (die Eigennamen)

A. Nawoi, Taschkent, Buchara.

D) Narsa otlari (die Stoffnamen)

der Tee (choy), das Wasser (suv)

Abstrakt otlarga abstrakt ma`noni bildiradigan otlar kiradi:

der Liebe (sevgi), das Leben (hayot)

§ 2. Otlarning tuzilish jihatidan turlari.

Nemis tilida otlar tuzilishiga ko`ra uch turga bo`linadi:

1. Tub otlar (Stammwörter), ya`ni bir o`zakdan iborat bo`lgan otlar, masalan: der Sohn, das Buch, der Tisch

2. Yasama otlar (abgeleitete Wörter), ya`ni o`zakka qo`shimcha qo`shish bilan hosil qilingan otlar, masalan: der Maler, der Sportler

OT yasovchi qo`shimchalar.

Yasama otlar turli qo`shimcha bilan yasaladi. Qo`shimchalar tub otlarga qo`shilgach, yangi ot hosil qiladi.

§3. Mujskoy roddagi otlarning qo`shimchalari.

-er, -ner, -ler, -ling qo`shimchalari nemis tiliga xos qo`shimchalardir. Bu qo`shimchalarning xususiyatlari quyidagicha: -er qo`shimchasi asosan fe`llardan ot yasab, biror kasb egasini bildiradi: -er qo`shimchasining ma`nosi ko`pincha o`zbek tilidagi -chi yoki -lik ma`nosiga mos keladi:

fliegen (uchmoq) - der Flieger (uchuvchi)

-ling qo`shimchasi odatda shaxsning belgi -otini bildiradi:

Der Lehrling, der Jüngling

-ner va -ler qo'shimchalari shaxsning hunari yoki mashg'ulotini bildiradi. Bu qo'shimchalarning ma'nosi ham ko'pincha o'zbek tilidagi -chi qo'shimchasining ma'nosiga mos keladi:

Der Sport-der Sportler

bestellen-der Besteller

-e qo'shimchasi ko'pincha jonli predmetlarni ,shaxsning biron millatga mansub ekanligini bildiradi:

Der Usbeke,der Deutsche

Nemis tilida yuqoridagi qo'shimchalardan boshqa chet tillardan kirgan qo'shimchalar ham ishlatiladi:

-ist : der Artist, der Anarchist

-ent: der Student, der Dozent

-ant: der Aspirant, der Kommendant

-at: der Soldat, der Kandidat

-ier: der Offizier, der Bankier

-or: der Doktor, der Professor

-ismus: der Realismus, der Egaismus

-eur: der Friseur, der Ingenieur.

§4. Jenskiy roddagi otlarning qo'shimchalari.

-in , -heit, -keit, -ung, -e qo'shimchalari jenskiy roddagi otlarning eng muhim qo'shimchalaridir . -in bilan mujskoy roddagi otlardan jenskiy rodga oid otlar yasaladi.

Masalan :

Der Schriftsteller(yozuvchi)-die Schriftstellerin(yozuvchi ayol)

Der Gefährte (umr yo'ldosh)- die Gefährtin(umr yo'ldosh ayol)

-in xayvonlar nomini bildirgan mujskoy roddagi otlarga qo'shilib ,shu xayvonning urg'ochisini nomini ham bildiradi. Masalan,

Der Kaninchen(quyon)-die Kaninchenin(urg'ochi quyon)

Der Wolf (bo'ri)-die Wolfin(urg'ochi bo'ri)

-heit va –keit qo'shimchasi bilan sifatlardan abstrakt ma'noli otlar yasaladi.

Gesundheit(sog'lik),Sauberkeit(ozodalik)

-ung qo'shimchasi bilan ko'pincha fe'llardan harakat nomini bildirgan jenskiy roddagi otlar yasaladi.

übersetzen-Übersetzung(tarjima qilmoq-tarjima),üben-Übung(mashq qilmoq-mashq)...

-e qo'shimchasi bilan sifat yoki fe'llardan abstrakt ma'noli otlar yasaladi. Masalan, die Lehre, die Länge, die Tiefe

Yuqorida ko'rsatilgan qo'shimchalardan tashqari ,chet tillardan kirgan –ie,-tion,-tät,-ik qo'shimchalari ham ishlatiladi. Bu qo'shimchalarga hamma vaqt urg'u tushadi,masalan:

-ie:die Theorie, die Chemie

-tion: die Organisation, die Revolution

-tät: die Fakultät, die

Universität

-ik: die Fabrik, die Politik

-ur: die Kultur, die Natur

§5.Sredniy roddagi otlarning qo'shimchalari.

-chen , -lein , -tum va –nis qo'shimchalari sredniy roddagi otlarning eng muhim qo'shimchalaridir.

-chen va –lein otlarga qo'shilib kichraytirish va erkalash ma'nosini anglatadi va o'zbekcha –cha qo'shimchasiga to'g'ri keladi . Masalan :

Der Tisch(stol)-das Tischchen(stolcha)

O'zakda a,o,u unlilari bo'lgan otlarga –chen va –lein qo'shimchasi qo'shilganda umlaut oladi ya'ni a,o,u unlilari ä,ö,ü, unlilariga almashadi,masalan:

Das Buch(kitob)-das Büchlein(kitobcha)

-tum asosan jamlik ma'nosini bildirgan sredniy roddagi otlarni yasaydi masalan: der Held (qahramon)-des Heldentum(qahramonlik)

Eslatma. mujskoy roddagi ba'zi otlar ham –tum qo'shimchasi bilan qo'llaniladi :reich(boy)-der Reichtum(boylik)

nis qo'shimchasi bilan odatda sredniy roddagi otlar yasaladi:das Hindernis (to'sginlik)

Eslatma.-nis qo'shimchasi bilan ba'zan jenskiy roddagi otlar ham yasaladi,masalan die Erlaubnis(ruxsat) die Kenntnis(bilim)

Quyidagi qo'shimchalar chet tillardan kirgan sredniy roddagi otlarning qo'shimchalariir:

-al: das Signal, das Lineal

-ment: das Dokument, das Instrument

-at: das Diktat, das Plakat

-um : das Datum, das Album

-ium: das Sanatorium, das Auditorium

§ 6.Qo'shma otlar (Zusammengesetzte Substantive)

Nemis tilida tub va yasama otlardan boshqa qo'shma otlar ham bor. Qo'shma otlar odatda ikki yoki undan ortiq so'zdan yasaladi. Nemis tilida qo'shma otlar juda ko'p ishlatiladi, masalan, ikki so'zdan yasalgan otlar:

Die Buchhandlung:das Buch+ die Handlung

das Klassenzimmer: die Klasse+ das Zimmer

Uch so'zdan yasalgan qo'shma otlar:

Der Fünfjahrplan:fünf+das Jahr +der Plan

Nemischa qo'shma otlar o'zbek tiliga ikki undan ortiq so'z vositasi bilan tarjima qilinadi.

Nemischa qo'shma otlar ,tarkibida qancha so'z bo'lishidan qat'iy nazar , bir artikl bilan ,ya'ni qo'shma otdagi so'nggi so'zning artikli bilan ishlatiladi. Qo'shma otdagi avvalgi so'z keyingi asosiy so'zni aniqlaydi.

Nemischa qo'shma otlarda urg'u qo'shma ot tarkibidagi avvalgi so'zga tushadi, masalan:

Die Wand+der Kalendar- der Wandkalendar

Ba'zi qo'shma otlarda avvalgi va keying asosiy so'zining o'rtasida ko'pincha es,en goho e,er tovushlari bo'ladi:

Der Wörterbuch(lug'at)

Das Tintenfaß(siyohdon)

§7 . Substantivatsiya(Nominaliesierung) yo'li bilan ot yasash.

Nemis tilida har bir so'z turkumi otga aylana oladi. Ot yasashning bu usuli substantivatsiya(Nominaliesierung) deyiladi. Otga aylangan so'zlar bosh harf bilan yozilib ,tegishli artikl bilan qo'llanadi.

a) Har bir infinitiv sredniy roddagi ot bo'la oladi,masalan :
sprechen(gapirmoq)-das Sprechen(gapirish),essen(yemoq)-das Essen (yeyish)

b) Otga aylangan sifatlar ma'nosiga ko'ra mujskoy yoki jenskiy rodga tegishli bo'ladi:

Krank (kasal)-der Kranke(kasal kishi),die Krank (kasal ayol)

Ba'zi fe'l o'zaklari ham otga aylangan,masalan: springen fe'lining sprung imperfekt shaklidan der Sprung oti xosil bo'lgan,gehen (yurmoq)fe'lining Partizip II shaklidan (gegangen) der Gang (yo'l)oti hosil bo'lgan.

§8.Otlarning ko'pligi.

O'zbek tilida birlikdagi otlarga –lar qo'shimchasini qo'shish bilan ko'plikdagi otlar hosil qilinadi; nemis tilida ko'plikdagi otlar asosan –e (-en),-er qo'shimchalarini qo'shish bilan xosil qilinadi ;ba'zan bunday otlar umlaut ham oladi .Ba'zi otlar esa ko'plikda hech qanday qo'shimcha ham olmaydi,artiklini o'zgartiradi ,xolos.

Shunday qilib nemis tilida otlarning ko'plik shakli to'rt xil yo'l bilan xosil qilinadi.

Birinchi turga –e qo'shimchasini oladigan quyidagi otlar kiradi:

a) mujskoy roddagi otlarning ko'pi (bu otlar bir bo'g'inli bo'ladi)

der Tag – die Tage

der Hund – die Hunde

der Schuh – die Schuhe

Umlautsiz

der Hund – die Hunde

der Schuh – die Schuhe

Umlaut bilan

Der Stuhl – die Stühle

Der Satz – die Sätze

Der Baum – die Bäume

Der Wolf – die Wölfe

b) Jenskiy roddagi bir bo'g'inli otlarning bir gruhi(o'zagida a,o,u unlilari doim umlaut oladi.)

die Stadt – die Städte

c) Sredniy roddagi ba'zi otlarda (ular da xech vaqt umlaut bo'lmaydi.)

das Zahr – die Zahre

das Naar – die Naare

das Werk – die Werke

das Plakat – die Plakate

das Hert – die Herte

Ikkinchi tur

Ikkinchi turga –en qo'shimchasini oladigan quyidagi otlar kiradi :

a)jensiy roddagi otlarning ko'pi

-e ,-er ,-el bilan tugagan otlar ko'plikda faqat –n qo'shimchasini oladi:

ESLATMA.-en qo'shimchasi bilan tugagan jenskiy roddagi otlarning ko'pligidagi

–en qo'shimchasidan oldin –n orttiriladi:

die Schulerin –die Schulerinnen (o'quvchi qiz -o'quvchi qizlar)

die Arbeiterin –die Arbeiterinnen (ishchi ayol –ishchi ayollar)

b)kuchsiz turlanishdagi mujskoy rodga oid otlarning hammasi

1)bosh kelishik birligida –e unlisi bilan tugagan otlar:

Der Affe –die Affen

Der Junge- die Junge

2) bir vaqtlar bosh kelishik birligida –e unlisi bo'lib ,hozirda bu unlini yo'qotgan mujskoy roddagi otlar.

Der Held –die Helden

Der Bär-die Bären

3)chet tillardan kirgan –ist ,-ent,-ant,-at,-graph,-nom kabi qo'shimchali otlar :

Der Student – die Studenten

Der Mensch- die Menschen

4) kuchli turlanishdagi otlarning bir qismi:

Der Staat-die Staaten

Der See – die Seen

c) sredniy roddagi quyidagi otlar(ular hech vaqt umlaut olmaydi)

das Ohr – die Ohren

das Herz – die Herzen

das Bett – die Betten

Uchinchi tur

Uchinchi turga –er qo'shimchasi oladigan quyidagi otlar kiraadi:

Sredniy roddagi bir bo'g'inli otlarning ko'pi(hamma vaqt umlaut oladi)

das Buch – die Bücher

das Haus – die Häuser

das Dorf – die Dörfer

das Dach – die Dächer

Mujskoy roddagi quyidagi otlar(hamma vaqt umlaut oladi)

der Mann – die Männer

der Wald – die Wälder

der Wurm – die Würmer

To'rtinchi tur

To'rtinchi turga ko'plikda hech qanday qo'shimcha olmaydigan otlar kiradi.

O'zagida a,o,u unlisi bo'lgan otlar odatda umlaut oladi.

1)-er ,el,-en qo'shimchalari bo'lgan mujskoy roddagi otlar:

der Mantel - der Mäntel

der Garten - die Gärten

der Lehrer – die Lehrer

der Schüler – die Schüler

2)-er,-el,-chen,-lein qo'shimchalari bo'lgan sredniy roddagi hamma otlar (hech vaqt umlautsiz bo'lmadi)

das Messer – die Messer

das Mädchen – die Mädchen

das Tischlein – die Tischlein

jenskiy roddagi ikkita ot(umlaut bilan)

Die Mutter –die Mütter (ona –onalar)

Die Tochter –die Töchter (qiz-qizlar)

chet tillardan kirgan otlarning ba'zilar kop'likda –s suffiksini oladi:

das Hotel – die Hotels

der Park – die Parks

das Kino – die Kinos

das Auto – die Autos

§9.Otlarning turlanishi (die Deklination der Substantive)

Kelishiklar

O'zbek tilida oltita kelishik bor ,nemis tilida esa kelishiklar to'rtta:

Der Nominativ(bosh kelishik)

Der Genitiv (qaratqich kelishigi)

Der Dativ(jo'nalish kelishigi)

Der Akkusativ (tushum kelishigi)

ESLATMA.o'zbek tilidagi o'rin –payt va chiqish kelishiklarining ma'nosi nemis tilida odatda Dativ kelishigi va predloglar yordamida bilan ifodalanadi:

maktabda –in der Schule

maktabdan – aus der Schule

O'zbek tilidagi kabi ,nemis tilida ham har bir kelishikning ma'lum so'roqlari bor:

Nominativ -wer ? was? (kim? nima?)

Genitiv –wessen? (kimning? nimaning?)

Dativ – wem? (kimga? nimaga?)

Akkusativ –wen? (kimni? nimani?)

O'zbek tilida beshta kelishikning maxsus qo'shimchasi bor. Nemis tilida esa kelishik qo'shimchalri asosan yo'q, ammo ba'zi otlar Genitiv kelishigi birligida – (e)s va Dativ kelishigining ko'ligida –(e)n qo'shimchalarini oladi. Nemis tilida otlar kelishiklar bilan turlanganda, asosan artikl o'zgaradi.

Nemis tilida otlarning birlikda turlanishi o'zaro farq qiladi, ammo ko'plikda ularning hammasi bir xilda turlanadi.

Otlarning birlikda turlanishi uch xilda bo'ladi: kuchli turlanish, kuchsiz turlanish va jenskiy turlanish. Bu uch xil turlanishning har biri o'ziga xos belgilari bilan bir-biridan farq qiladi.

§10. Otlarning kuchli turlanishi

Kuchli turlanishdagi otlar Genitiv kelishigining birligida –(e)s qo'shimchasini oladi. Mujskoy roddagi otlarning ko'pligi va sredniy roddagi otlarning hammasi (das Herz so'zidan boshqasi) kuchli turlanadi.

Kelishiklar	Mujskoy rod	Sredniy rod
NOM.	Der Tag	Das Buch
GEN.	Des Tag(e)s	Des Buch(e)s
DAT.	Dem Tag	Dem Buch
AKK.	Den Tag	Das Buch

§11.Otlarning kuchsiz turlanishi

(Die schwache Deklination der Substantive)

Kuchsiz turlanishdagi otlar Nominativ kelishigi birligidan tashqari hamma kelishiklarda –en qo'shimchasini oladi .

Kuchsiz turlanish bilan faqat mujskoy roddagi ba'zi otlar turlanib, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Nominativ kelishigi birligi –e unlisi bilan tugagan mujskoy roddagi otlar:

Der Hase(quyon) , der Rabe (qarg'a)

2) Bir vaqtlar –e bilan bitib ,hozirda bu unlini yo'qotgan mujskoy roddagi bir bo'g'inli otlar:

Der Bär(ayiq) , der Held(qahramon)

3)-ist,-ent,-ant,-graph,-nom kabi qo'shimchali chet tillardan olingan otlar:

Der Student , der Soldat , der Aspirant

Otlarning kuchsiz turlanishi

NOM.	Der Hase	Student	Held
GEN.	Des Hasen	Studenten	Helden
DAT.	Dem Hasen	Studenten	Helden
AKK.	Den Hasen	Studenten	Helden

§12.OTLARNING JENSKIY TURLANISHI.

(DIE WEIBLICH DEKLINATION)

Jenskiy roddagi otlarning hammasi jenskiy turlanish bilan turlanadi, ular birlikda hech qanday kelishik qo'shimchalarni olmay ,faqat artikllargina almashadi,xolos.

Jenskiy turlanish namunasi

NOM.	Die Mutter	Die Stadt	Die Tochter
GEN.	Der Mutter	Der Stadt	Der Tochter
DAT.	Der Mutter	Der Stadt	Der Tochter
AKK.	Die Mutter	Die Stadt	Die Tochter

§13. OTLARNING KO'PLIKDA TURLANISHI

(DIE DEKLINATION DER SUBSTANTIVA IM PLURAL)

Nemis tilida uch roddagi hamma otlar ko'plikda turlanadi. Ular ko'plik qo'shimchasidan tashqari, Dativ kelishigida-(e)n qo'shimchani oladi, boshqa kelishiklarda esa hech qanday qo'shimcha olmaydi.

Nominativ kelishigi ko'pligida qo'shimchasi bo'lgan otlarga Dativ kelishigida ikkinchi-n qo'yilmaydi.

Otlarning ko'plikda turlanishi

	1-tip	2-tip	3-tip	4-tip
Kelishiklar	(¨)e	-n	¨er	(¨)
NOM.	Die Tische	Die Tafeln	Die B¨ucher	Die G¨arten
GEN.	Der Tischche	Der Tafeln	Der B¨ucher	Der G¨arten
DAT.	Den Tischhen	Den Tafeln	Den B¨uchern	Den G¨arten
AKK.	Die Tische	Die Tafeln	Die B¨ucher	Die G¨arten

Otlarning ko'plikda turlanishi

Kelishiklar	Artikl	Negiz	Ko'plik qo'shimchalari				Kelishik qo'shimchalari
			1-tip	2-tip	3-tip	4-tip	
NOM.	die		(¨)er	-(e)n	(¨)e	--	-(e)n
GEN.	der		(¨)er	-(e)n	(¨)e	--	
DAT.	den		(¨)ern	-(e)n	(¨)e	--	
AKK.	die		(¨)er	-(e)n	(¨)e	--	

§.14. ATOQLI OTLARNING TURLANISHI (DIE DEKLINATION DER EIGENNAMEN)

Atoqli otlar odatda artiklsiz ishlatiladi.

Atoqli otlar genitiv kelishigida faqat -s qo'shimchasini oladi:

Nom.	Buchara
Gen.	Bucharas
Dat.	Buchara
Akk.	Buchara

Masalan:

Bucharas Denkmäler sind berühmt.

Agar atoqli ot oldida sifat aniqlovchi bo'lsa ot tegishli artiklni olib unga genitiv kelishigi qo'shimchasi –s qo'shilganda: faqat artikl o'zgaradi;

Die Werke des großen Nawoiy.

Atoqli otlarning Genitiv kelishigi o'rnida ba'zan von predlogi ishlatiladi.

Masalan:

Die Straßen von Andishon.

Teste zum Thema “Das Substantiv”

1. Setzen Sie das Substantiv ein.

Die Krankheit dieses ... ist schwer.

- A) Menschens
- B) Mensch
- C) Menschen
- D) Mensche

2. Ergänzen Sie den Satz.

Ein Mann aus Usbekistan ist

- A) ein Usbeke
- B) ein Usbek

- C) eine Usbekin
D) einer Usbeker
3. Setzen Sie das Substantiv ein.
Die Mutter gratuliert
A) der Sohn
B) dem Sohn
C) des Sohnes
D) den Sohn
4. Störe ... nicht, er arteitet!
A) der Vater
B) dem Vater
C) des Vater
D) den Vater
5. Welche Substantive erhalten im Plural das Suffix “-s”?
A) der Lehrer, das Sofa, das Buch.
B) das Auto, das Hotel, das Foto.
C) der Vater, das Kino, das Mädchen.
D) das Kino, das Heft, die Uhr.
6. Welche Substantiv erhält im Plural der Umlaut?
A) der Stuhl
B) der Berg
C) der Tag
D) der Monat
7. Welche Pluralformen sind richtig?
A) Denkmäle, Parken, Strasse.
B) Denkmäler, Parkes, Strassen.
C) Denkmäler, Parks, Strassen.
D) Denkmäle, Parks, Strasse.
8. Welche Substantive erhält im Plural das Siffix “-nen”?
A) der Bank

- B) die Lehrerin
- C) die Klasse
- D) die Stadt

II. ARTIKL (DER ARTIKEL).

Nemis tilida otlar odatda artikl bilan qo'llanadi. Artikl otlarning oldida kelib, ularning roдини, sonini va kelishigini ko'rsatadi. Artikllar o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

§15. ARTIKLNING TURLARI.

Artikllar asosan ikki xil bo'ladi: aniq artikllar (der bestimmte Artikel): der, die, das ko'plikda : die va noaniq artikllar (der unbestimmte Artikel): ein, eine, ein. Bundan tashqari inkor artikllar (der Negativartikel): kein , keine va egalik artikllar (Possesivartikel): mein, meine ham mavjud

ANIQ ARTIKL

Mujskoy roddagi otlar birlikda der jenskiy roddagi otlar die sredniy roddagi otlar das artikli bilan qo'llanadi. Ko'plikda esa uchala rodning aniq artikli die bo'ladi.

BIRLIK
(SINGULAR)

KO'PLIK
(PLURAL)

Der Tisch

Die Stadt

Das Haus

die Tische

die Städte

die Häuser

NOANIQ ARTIKL.

Mujskoy roddagi otlar birlikda ein, jenskiy roddagi otlar eine, sredniy roddagi otlar ein artikli bilan qo'llanadi. Noaniq artiklning ko'plik shakli bo'lmagani uchun ,birlikda noaniq artikl bilan ishlatilgan otlar ko'plikda artiklsiz qo'llanadi,masalan:

BIRLIK
(SINGULAR)

Ein Tisch

Eine Stadt

Ein Haus

KO'PLIK
(PLURAL)

Tische

Städte

Häuser

INKOR ARTIKL.

Mujskoy va sredniy roddagi otlar oldidan kein jenskiy rod va ko'plikdagi otlar oldidan keine artikllari ishlatiladi.

BIRLIK
(SINGULAR)

Kein Tisch

KO'PLIK
(PLURAL)

keine Tische

Keine Stadt

keine Städte

Kein Haus

keine Häuser

EGALIK ARTIKL

Mujskoy va sredniy roddagi otlar oldidan mein jenskiy rod va ko'plikdagi otlar oldidan meine artikllari ishlatiladi.

Mein(mening,o'zimning,meniki)

Dein(sening ,o'zingning,seniki)

Sein(uning,o'zining,uniki)

Unser(bizning,o'zimizning,o'zimizniki)

Euer(sizlarning,o'zlarining,sizlarniki)

Ihr(ulzarning,o'zlarining,ularniki)

Ihr (sizning,o'zingizning,sizniki)

ESLATMA. Egalik artikllari otlarning rod, soni, kelishigiga qarab ,qo'shimchalarni oladi.

BIRLIK
(SINGULAR)

KO'PLIK
(PLURAL)

Mein Tisch

meine Tische

Meine Stadt

meine Städte

Mein Haus

meine Häuser

§16.ARTIKLNING QO'LLANISHI.

1. Quyidagi hollarda noaniq artikl qo'llanadi:

1) Agar biror predmet birinchi marotaba atalsa, o'sha predmet nomi oldida noaniq artikl ishlatiladi, masalan:

Im Zimmer steht ein Mann. Xonada qandaydir bir kishi turibdi. Gapda ein Mann oti noaniq artikl bilan qo'llangan, chunki kishining kim va qanday ekanligi so'zlovchi shaxs uchun noma'lumdir. Noaniq artikl ba'zan o'zbek tilidagi "qandaydir", "bir qandaydir" kabi so'zlarga to'g'ri keladi.

2) otlar es gibt (bor) iborasi va haben (ega bo'lmoq) fe'lidan keyin hamma vaqt noaniq artikl bilan qo'llanadi:

Es gibt eine Hochschule in der Stadt.

Ich habe ein Freund.

II. Quyidagi hollarda aniq artikl qo'llanadi:

1) Ilgari aytilgan va aniq bo'lgan predmet yoki shaxs nomlari oldida:

Ich habe ein Buch gekauft. Das Buch ist interessant.

2) Yakka-yagona predmet nomlari oldida :

die Sonne (quyosh), der Mond

(oy), die Erde (yer), der Himmel(osmon).

Der Himmel ist blau. Die Erde dreht sich um die Sonne.

3) Oy va kun nomlari oldida:

Der January(yanvar) der Sommer (yoz), der Montag (dushanba).

Der Januar ist Wintermonat. Im Sommer fahren wir nach Deutschland.

4) Aniqlovchili otlar oldida

a) Aniqlovchi ot Genitiv kelishigida bo'lsa:

Das Buch des Schülers ist neu.

b) Ot oldidagi sifat orttirma darajada bo'lsa :

Nawoi ist der größte usbekische Dichter.

c) Otlar oldida tartib son bo'lsa:

Die erste Stunde beginnt um 9 Uhr.

§17.ARTIKLNING QO'LLANMASLIK HOLLARI.

Gapda ba'zan artikl tushiriladi. Bunday hollarda ot artiklsiz qo'llanadi.

Artiklning tushirilish hollari:

a)ot oldida sanoq son yoki wieviel?so'roq olmoshi bo'lsa:

b)atoqli ot oldida

c)ot kesim tarkibidagi kasb –mashg'ulotni yoki millatni bildiruvchi ot oldida:

d)gapda to'ldiruvchi bo'lib kelgan moddiy predmet nomlari oldida:

e)birlikda noaniq artikli bo'lgan otlar ko'plikda artiklsiz qo'llanadi:

Aniq va noaniq artikllarning kelishiklarda turlanish jadvali

Kelishiklar	Birlik						Ko'plik (hamma rodlar uchun)	
	Aniq artikl m.r	Noaniq artikl m.r	Aniq artikl j.r	Noaniq artikl j.r	Aniq artikl s.r	Noaniq artikl	Aniq artikl	Noaniq artikl
Nom.	Der	Ein	Die	Eine	Das	Ein	Die	-
Gen.	Des	Eines	Der	Einer	Des	Eines	Der	-
Dat.	Dem	Einem	Der	Einer	Dem	Einem	Den	-
Akk.	Den	Einen	Die	Eine	Das	Ein	Die	-

Übungen zum Thema “Das Artikel”

Übung 1. Bergünden Sie den Gebrauch des unbestimmten Artikels.

1. Da steht ein Kind.
2. Im Institut gibt es eine Bibliothek.
3. Wir haben ein Buch.

4. Karim läuft wie ein Sportler.
5. Er braucht einen Federhalter.
6. Die Tanne ist ein Nadelbaum.

Übung 2. Bergünden Sie den Gebrauch des bestimmten Artikels.

1. Ich verbringe den Sommer in Kokand.
2. Das Buch des Schulers ist neu.
3. Die Wolga ist der längste Fluß.
4. Heute ist der dritte Tag der Woche.
5. Die Sonne und der Mond sind auch Planeten.

Übung 3. Verwenden Sie statt der Punkte den richtigen Artikel.

1. Das ist ... guter Vorschlag.
2. Sie hat ... Vater und ... Mutter.
3. Wir haben ... Auto.
4. ... Erde dreht sich um ... Sonne.
5. ... Himmel ist heute wolkenlos.
6. ... Mars und ... Venus sind Sterne.

Übung 4. Übersetzen Sie folgende Sätze ins Deutsch.

Beachten Sie dabei das Fehlen des Artikels.

1. Biz nonushtada choy ichamiz, non bilan sariyog` yeymiz.
2. Men o`zbekman, u tojik, Ruslan esa rus.
3. Kamolning ota-onasi vrach.
4. Xolam o`qituvchi bo`lib ishlaydi.
5. U asal yeyayapti.

Übung 5. Beantworten Sie folgende Fragen.

1. Was trinkt das Kind gern? (die Milch).
2. Was isst Lola zum Frühstück?
3. Was ist Rano?. (die Dolmetscherin).

4. Was gehen Sie kaufen? (der Kucker).
5. Was ist Tochir Malik? (der Schriftsteller).

Übung 6. Setzen Sie die Deklination fort!

Nominativ	der Zug,	die Bluse,	das Herz.
Genitiv			
Dativ			
Akkusativ			

Teste zum Thema “Das Artikel”

1. Setzen Sie die Artikel ein.

Mein Freund liest ... Buch. ... Buch ist interessant.

- A) eine, die
- B) ein, das
- C) einer, den
- D) einem, das

2. Setzen Sie die Artikel ein, wenn es nötig ist.

Deutschland ist ... hochentwickeltes Land.

- A) eine
- B) ein
- C) einem
- D) das

3. - Haben Sie ... Auto?

- Natürlich.

- A) ein
- B) das
- C) den
- D) eine

4. Sie sieht wie ... Französin aus.

- A) ein

B) eine

C) -

D) den

5. Finden Sie den Satz mit dem Fehler.

A) Er hat keine Verwandte.

B) Er ist der Lehrer.

C) Ich habe keine Lust.

D) Er hat kein Geld.

6. Setzen Sie die Artikel ein.

Im ersten Stock gibt es ... Lesesaal.

A) den

B) einen

C) des

D) ein

7. Habt ihr ... dreizimmer Wohnung?

A) ein

B) eine

C) die

D) das

8. Diese Frau hat ... drei Söhne.

A) die

B) -

C) das

D) eine

9. Setzen Sie die Artikel ein.

... Museen sind montags geschlossen.

A) Das

B) Die

C) Des

D) Eine

10. Setzen Sie die Artikel ein, wenn es nötig ist.

Ich bin ... Lehrerin und arbeite in ... Schule.

- A) der, einen
- B) -, der
- C) einer, ein
- D) -, einem

III.OLMOSH(DAS PRONOMEN)

Nemis va o'zbek tillaridagi olmoshlarning ma'nosi asosan bir xildir. Olmoshlar ot,sifat va sonlarning o'rnida qo'llanadi. O'zbek tilidagi olmoshlar ma'no jihatidan 8 turga bo'linadi:

- 1)kishilik olmoshlari
- 2)o'zlik olmoshlari
- 3)Egalik olmoshlari
- 4)ko'rsatish olmoshlari
- 5)so'roq olmoshlari
- 6)belgilash olmoshlari
- 7)bo'lishsizlik olmoshlari
- 8)gumon –aniqsizlik olmoshlari

Nemis tilida ham olmoshlar turlarga bo'linadi:

- 1) **kishilik olmoshlari** :ich (men),
du(sen),
er,sie,es(u)
wir(biz)
ihr(siz),
Sie(ular)
- 2) **O'zlik olmoshi:** sich
- 3) **Egalik olmoshi**

Mein (mening, o'zinning,meniki)

Dein (sening , o'zingning, seniki)

Sein (uning,o'zining, uniki)

Unser (bizning, o'zimizning, o'zimizniki)

Euer (sizlarning, o'zlaringning, sizlarniki)

Ihr (ulzarning, o'zlarining, ularniki)

Ihr (sizning, o'zingizning, sizniki)

ESLATMA. Egalik olmoshlari otlarning rodi, soni, kelishigiga qarab, qo'shimchalarni oladi

3) **Ko'rsatish olmoshlari:** dieser, diese, dieses(bu, shu) diese (bular) jener, jene, jenes-(u,o'sha) jene (ular) derselbe (o'sha , o'shaning o'zi),solcher(shunday) va boshqalar.

4) **So'roq olmoshlari:** wer?(kim?),was?(nima?), welcher?(qanday?qaysi?), was fur ein?(qanaqa ?qanday?)

5) **Nisbiy olmoshlar** :der ,die,das,,die va welcher ,welche ,welches,welche

6) **Noaniq olmoshlar:** jeder,(har bir har bir qaysi), jemand(kimdir), niemend(hech kim), nichts(hech narsa), alle(hamma), manche(ba'zi)

Nemis tilida noaniq olmoshlardan boshqa noaniq shaxsli man olmoshi ham bor; man olmoshi o'zbek tiliga alohida tarjima qilinmaydi: Man spricht deutsch.

7) **Shaxssiz olmosh:** es(o'zbek tiliga alohida tarjima qilinmaydi) Es regnet.(yomg'ir yog'moqda)

§18.KISHILIK OLMOSHLAR (DAS PERSONALPRONOMEN)

Kishilik olmoshlari sahxsni bildirish jihatidan uch xil bo'ladi:

Birlik:birinchi shaxs ich(men) ikkinchi shaxs du(sen) uchinchi shaxs mujskoy rod uchun er (u) jenskiy rod uchun sie (u) sredniy rod uchun es (u)

Ko'plik: wir (biz),ihr (siz),sie (ular) uchinchi shaxs ko'plikdagi SIE olmoshi hurmat uchun ham ishlatilib ,bosh harf bilan yoziladi,masalan: "Lesen Sie bitte!" (o'qingiz!)

Kishilik olmoshi turlanishi

BIRLIK

Kelishiklar	I shaxs	II shaxs	III shaxs
NOM.	Ich(men)	Du(sen)	Er sie es
GEN.	Meiner(mening)	Deiner(sening)	Seiner ihrer seiner
DAT.	Mir(menga)	Dir(senga)	Ihm ihr ihm
AKK.	Mich(meni)	Dich(seni)	Ihn sie es

KO'PLIK

KELISHIKLAR	I SHAXS	II SHAXS	III SHAXS
NOM.	Wir(biz)	Ihr(siz)	Sie(ular)
GEN.	Unser(bizning)	Eurer(sizning)	Ihrer(ularning)
DAT.	Uns(bizga)	Euch(sizga)	Ihnen(ularga)
AKK.	Uns(bizni)	Euch(sizni)	Sie(ularni)

ESLATMA. 1)kishilik olmoshlari genitiv kelishigida kam qo'llanadi.

2) III shaxs birligidagi er,sie,es olmoshlari o'zbek tiliga hamma vaqt u so'zi orqali tarjima qilinadi.

§19. O'ZLIK OLMOSHI (DAS REFLEXIVPRONOMEN)

Nemis tilida sich o'zlik olmoshi o'zlik fe'lining noaniq shakli va uning III shaxs birlik va ko'pligida qo'llanadi.

Bu olmosh o'zbek tiliga –n, -in bilan hosil qilingan o'zlik fe'llari orqali tarjima qilinadi.

Infinitiv: sich waschen(yuvinmoq)

III shaxs birlik: er,sie,es wascht sich(u yuvinyapti,yuvinadi)

III shaxs ko'plik: sie waschen sich (ular yuvinyapti, yuvinadi.)

Sich olmoshi ba'zan o'zbek tilida “o'z” so'zi ma'nosida qo'llanadi:

Sie fühlt sich gut - U o`zini yaxshi sezadi.

Nemis tilidagi hamma o'zlik fe'llar o'zbek tiliga –I, -in bilan yasalgan o'zlik fe'llar orqali tarjima qilinmaydi:

Sich setzen - (o'tirmoq)

Sich freuen - (hursand bo'lmoq)

Sich o'zlik olmoshi boshqa olmoshlardan mustaqil ma'noga ega bo'lmaganligi bilan farq qiladi.

§20.EGALIK OLMOSHLARI (DAS POSSESSIVPRONOMEN)

Egalik olmoshlari hozirgi paytda egalik atikllari deb ham ishlatiladi va predmetning biror shaxsga qarashli ekanligini bildiradi.

Mein	mening	unser	bizning
Dein	sening	euer	sizning
Sein	uning	ihr	ularning

Egalik olmoshlari wessen? (kimning?) so'rog'iga javob bo'ladi.

Egalik olmoshlari o'zbek tilidagi egalik qo'shimchalariga yoki qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshlariga to'g'ri keladi, masalan:

Mein Bruder arbeitet in der Schule.

Nemis tilidagi egalik olmoshlari o'zbek tilidagi "o'z" olmoshiga ham to'g'ri kela oladi

Ich lese mein Buch. — Men o'z kitobimni o'qiyapman.

Du liest dein Buch. — Sen o'z kitobingni o'qiyapsiz.

Er liest sein Buch. — U o'z kitobini o'qiyapti.

Sie liest ihr Buch — U o'z kitobini o'qiyapti.

Wir lesen unser Buch. — Biz o'z kitobimizni o'qiyapmiz.

Ihr lest euer Buch. — Siz o'z kitobingizni o'qiyapsiz.

Sie lesen ihr Buch. — Ular o'z kitoblarini o'qiyaptilar.

Sie lesen Ihr Buch. — Sizlar o'z kitoblaringizni o'qiyapsizlar.

Egalik olmoshlari birlikda noaniq artiklning qo'shimchalarini, ko'plikda esa aniq artiklning qo'shimchalari ni oladi.

EGALIK OLMOSHLARINING TURLANISHI

BIRLIK

Kelishiklar	mujskoy rod	Jensiy rod	Sredniy rod
NOM.	Mein unser	Meine unsere	Mein unser
GEN.	Meines unserer	Meiner unserer	Meines unseres
DAT.	Meinem unserem	Meiner unserer	Meinem unserem
AKK.	Meinen unsern	Meine unsere	Mein unser

KO'PLIK

HAMMA RODLAR UCHUN

NOM.	Meine	Unsere
GEN.	Meiner	Unserer
DAT.	Meinen	Unseren
AKK.	Meine	Unsere

§ 21. KO'RSATISH OLMOSHLARI (DAS DEMONSTRATIVPRONOMEN)

Ko'rsatish olmoshlari (dieser,der,jener,solcher va boshqalar)predmetni ko'rsatib ,ta'kidlab keladi.

Nemis tilida ko'rsatish olmoshlari ,rus tilidagidek aniqlanmish so'z bilan rod,son,va kelishikda moslashadi,masalan:

Dieser Schuler

Diese Schulerin

Dieses Schulers

O'zbek tilida Grammatik rod bo'lmagani uchun ,dieser ,diese va dieses olmoshlari bu (shu) olmoshi bilan tarjima qilinadi .

O'zbek tilida aniqlovchi bo'lib kelgan ko'rsatish olmoshlari son va kelishik qo'shimchalarni olmaydi,nemis tilida esa ular o'zgaradi .masalan

N.dieser Schüler

G.dieses Schülerin

D.diesem Schülerin

A.diesen Schülers

Ko'rsatish olmoshlari aniq artikl kabi turlanadi.

KO'RSATISH OLMOSHINING TURLANISHI.

BIRLIK

Kelishiklar	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod
Nom.	Dieser (der) Tag	Diese(die)Blume	Dieses(das)Buch
Gen.	Dieses(des) Tages	Dieser(der)Blume	Dieses(des) Buches
Dat.	Diesem(dem) Tag	Dieser(der)Blume	Diesem(dem)Buch
Akk.	Diesen (den) Tag	Diese(die)Blume	Dieses(das)Buch

KO'PLIK

HAMMA RODLAR UCHUN

NOM.	Diese(die) Tage		Bücher Blumen
GEN.	Dieser(der) Tage		Bücher Blumen
DAT.	Diesen(den) Tagen		Büchern Blumen
AKK.	Diese(die) Tage		Bücher Blumen

§22. SO'ROQ OLMOSHLARI(DAS FRAGEPRONOMEN)

So'roq olmoshlari wer? was? (kim?, nima?) welcher, was für ein?(qanday?,qaysi?) predmet yoki belgi haqidagi so'roqni bildiradi.

Wer?Was? so'roq olmoshini turlanishi

NOM.	Wer?was?	Kim?nima?
------	----------	-----------

GEN	Wessen?	Kimning ? nimaning?
DAT.	Wem?	Kimga?nimaga?
AKK.	Wen? Was?	Kimni?nimani?

Wer? was? olmoshlaridan keyin fe'l kesim hamma vaqt IIIshaxs birligida ishlatiladi.

Masalan:

Wer spricht?

Welcher? welche? welches? So'roq olmoshlari ko'rsatish olmoshlaridek qo'llanadi.

Was für ein?so'roq olmoshi esa noaniq artikl kabi turlanadi.

§ 23. NISBIY OLMOSHLAR(DAS RELATIVPRONOMEN)

Nemis tilida (birlikda der,die, das; ko'plikda die yoki welcher ,welche ,welches,welche) nisbiy olmoshlar bo'lib ular aniqlovchi ergash gapni bosh gapga bo'g'lab ,bosh gapdagi aniqlanmishga qarab o'zgaradi.

Nemischa nisbiy olmoshlar o'zbek tiliga alohida tarjima qilinmaydi.

Ular ergash gapning kesimi bilan birga o'zbek tilidagi sifatdoshga to'g'ri keladi ,masalan:

NISBIY OLMOSHLARNING TURLANISHI

Kelishikla r	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod	Hamma rodlar uchun
NOM.	Der(welcher)	Die(welche)	Das(welches)	Die(welche)
GEN.	Dessen(Deren	Dessen	Deren
DAT.	Dem(welchem)	Der(welcher)	Dem(welchem)	Denen(welchen)
AKK.	Den(welchen)	Die(welche)	Das(welches)	Die(welche)

ESLATMA. nemis tilida *welcher* ,*welche* ,*welches* nisbiy olmoshlari kamroq qo'llanadi.

§24 NOANIQ OLMOSHLAR (DAS UNBESTIMMTE PRONOMEN)

Noaniq olmoshlar quyidagilar: *man,es* (alohida tarjima qilinmaydi), *jemand*(biron kishi)*niemand*(hech kim),*etwas*(biron narsa),*nichts*(hech nima),*viele*(ko'p ,ancho)*eignige*(ba'zi),*jeder*(har kim)va boshqalar.

Bu olmoshlar ma'nom jihatidan bir –biridan farq qiladi.

Man olmoshi noaniq shaxsli olmoshi gapda hamma vaqt ega vazifasida keladi. Man olmoshi qo'llangan gaplarda harakatni bajaruvchi shaxs aniq bo'lmasa ham, u gumon qilinadi.

Man olmoshi bor gaplarda fe'l kesim har doim III shaxs birligida kelib, o'zbek tiliga III shaxs ko'pligida tarjima qilinadi, masalan:

Man spielt hier Schach.

Man spricht Deutsch .

Man olmoshi modal fe'llar bilan qo'shilib , quyidagicha tarjima qilinadi:

man kann — mumkin (imkoniyat ma'nosida)

man kann nicht — mumkin emas

man muß — kerak, darkor

man muß nicht — kerak emas

man soll — lozim, zarur

man darf — mumkin, ruhsat

man darf nicht — mumkin emas, ijozat etilmaydi.

§25. SHAXSSIZ OLMOSH(DAS UNPERSONAL PRONOMEN)

ES shaxssiz olmoshdir.

Es olmoshi odatda kesimi shaxssiz fe'l bilan ifodalangan gaplarda ega vazifasida keladi, masalan:

Es regnet - Yomg'ir yog'moqda

Es bletzt - Chaqmoq chaqayapti
Es donnert - Momoqaldiroq bo`layapti.
Es schneit – Qor yog`moqda
Es scheint – Quyosh nur sochyapti
Es olmoshi ba'zi iboralarda ham qo'llaniladi:
Es ist kalt(sovuyq)
Es ist dunkel(qorong'u)
Es gibt(bor)
Es gibt nicht(yo'q)
Wie geht es ihnen?(axvolingiz ishlaringiz qalay?)
Wie spat ist es?(soat necha?)
Es ist neun.(soat to'qqiz)

Übungen zum Thema "Das Pronomen"

Übung 1. Setzen Sie statt der Punkte passende Personalpronomen ein.

1. ... lernst in der Schule.
2. ... spricht deutsch gut.
3. ... geben ein Heft.
4. Arbeitest ... im Institut?
5. ... übersetzt den Text richtig.

Übung 2. Setzen Sie statt der unterstrichenen Wörter passende Pronomen ein.

1. Der Professor erklärt den Studenten die Aufgabe.
2. Die Mutter liest dem Enkel ein Märchen.
3. Er gibt der Lehrerin ihren Füller.
4. Der Arzt gibt der Patientin die Arznei.
5. Lola zeigt der Tante die Fotos.
6. Mein Freund schreibt dem Vater, einen Brief.

Übung 3. Setzen Sie statt der Punkte passende Pronomen in entsprechenden Kasus ein.

1. Meine Schwester hat heute Geburtstag. Ich gratuliere ..., schenke ... ein Buch.

2. Mein Vater wird mit einer Medaille ausgezeichnet. Wir gratulieren ..., beglückwünschen ..., schenken ... Blumen.
3. Meine Tochter hat heute Geburtstag. Ich gratuliere ..., küsse ... und schenke ... eine Puppe.
4. Mein kleiner Sohn hat Geburtstag. Ich gratuliere ..., küsse ... und schenke ... einen Spielzeug.

Übung 4. Beantworten Sie die Fragen.

1. Bekommst du oft Briefe von deinen Freunden aus Berlin?
2. Ist dein Zimmer im Studentenheim sauber?
3. Sorgen Sie für Sauberkeit in Ihrem Zimmer?
4. Aus wieviel Studenten besteht ihre Gruppe?

Übung 5. Setzen Sie statt der Subjekt-Substantive Pronomen "man" ein.

1. Wir feiern im März 2001 das Internet Festival.
2. Sie arbeiten täglich im Personal Computer.
3. Die Ausländer bewundern die Sehenswürdigkeiten Taschkents.
4. Die Studenten betreten das Auditorium rechtzeitig.

Übung 6. Übersetzen Sie ins Deutsche.

Teste zum Thema "Das Pronomen"

1. Ersetzen Sie die unterstrichenen Wörter durch die Pronomen.

Die Mutter gab dem Kind ein Buchlein.

- A) er/ihm
 - B) sie/ihm
 - C) er/ihnen
 - D) es/sie
2. Der Junge spielt mit seinen Mitschülern sehr gern Fußball.
- A) er/ihr
 - B) er/ihnen
 - C) sie/ihr
 - D) er/sie

3. Ich danke ... für ... Aufmerksamkeit.

A) Ihnen/ihre

B) sie/ihr

C) sie/unsere

D) ihre/ihnen

4. Ergänzen Sie die Sätze durch die Pronomen.

... arbeitet heute nicht. ... ist Sonntag.

A) man/es

B) es/man

C) er/es

D) es/er

5. ... wird dunkel, ... muß Licht machen.

A) man/es

B) es/man

C) es/du

D) man/sie

6. Was ... gründlich lernt, bleibt lange im Kopf.

A) du

B) er

C) man

D) wir

7. Seit einem Monat bekomme ich ... Briefe von ihm.

A) kein

B) keine

C) keinen

D) keiner

8. Ich habe unterwegs ... Mann getroffen.

A) keine

B) keinen

C) nicht

D) keiner

9. Wer fremde Sprachen nicht kennt, weiß ... von seiner eigenen. (I.W. Goethe).

A) etwas

B) nichts

C) kein

D) alles

10. Dieser Herr ist unser Rektor. ... Name ist Ibragimov.

A) Unser

B) Sein

C) Unsere

D) Siene

§ IV. SIFAT (DAS ADJEKTIV)

Sifat predmetning belgisini bildirib, Welcher? Welche? Welches? Welche? va Was fur ein? so'roqlariga javob bo'ladi.

Nemis tilida sifat o'zbek tilidagi kabi gapda aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi, masalan:

Das große Gebäude ist neu.

Nemis tilida sifat aniqlovchi, aniqlanmish ot bilan rod son va kelishikda moslashadi, o'zbek tilida sifat aniqlovchi o'zgarmaydi:

Der kluge Junge (aqlli bola)

Die klugen Jungen (aqlli bolalar)

Nemis tilidagi sifat kesim qo'shimchasiz (qisqa shaklda) bo'lib, gap oxirida keladi

§26. Sifatning yasalishi

Nemis tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan ham yasalishi mumkin. Sifat yasovchi qo'shimchalarning eng muhimlari quyidagilar:

-ig qo'shimchasi bilan asosan otlardan sifat yasaladi:

die Macht - mächtig (kuchli)

die Sonne – sonnig (quyoshli)

der Berg – bergig (tog`li)

-lich qo`shimchasi bilan otlardan sifat yasaladi:

der Mensch – menschlich (kishilik)

der Freund – freundlich (do`stlik)

-isch qo`shimchasi bilan ot negizlaridan sifat yasaladi:

die Stadt – städtisch (shaharlik)

der Russe – russisch (ruscha)

der Usbeke – usbekisch (o`zbekcha)

-er qo`shimchasi bilan shahar nomlaridan sifat yasalib bosh harf bilan yoziladi:

Das Taschkenter Theater -Toshkent teatri

-los qo`shimchasi otlarga qo`shilib o`zbekcha –siz –be qo`shimchasiga to`g`ri keladi, masalan:

Die Arbeit (ish)-arbietslos (ishsiz)

§ 27. Sifatlarning turlanishi.

Ma`lumki, o`zbek tilida sifat turlanmaydi. Nemis tilida esa sifat aniqlovchi son, kelishik va rod bilan turlanadi, lekin uning soni rodi va kelishiklari aniqlanmishga bog`liq bo`ladi, masalan:

Die große Stadt

Der großen Stadt

Ein großes Haus

Sifatlar uch hil turlanadi: kuchsiz turlanish, kuchli turlanish va aralash turlanish.

§ 28. Sifatlarning kuchsiz turlanishi.

Kuchsiz turlanuvchi sifatlar uch rodning bosh kelishik birligida , jenskiy va sredniy rodning bosh va tushum kelishik birligida –e qo`shimchasini oladi.

Agar sifat oldida aniq artikl yoki dieser, welcher, jeder, solcher, jener ko`rsatish olmoshlari, ko`plikda unsere , meine , alle, beide, kabi olmoshlar bo`lsa sifat kuchsiz turlanadi.

Sifatlarning kuchsiz turlanish namunasi

Birlik

Kelishiklar	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod
NOM.	Der	Die	Das
GEN.	Des	Der	Des
DAT.	Dem	Der	Dem
AKK.	Den	Die	Das

Ko'plik

(hamma rodlar uchun)

NOM.	Die
GEN.	Der
DAT.	Den
AKK.	Die

§ 29. Sifatlarning kuchli turlanishi

Kuchli turlanadigan sifatlarning birlik va ko'plikda aniq artiklning qo'shimchasini oladi, lekin mujskoy va sredniy roddagi sifatlarning *Genetiv* kelishigi birligida –en qo'shimchasini oladi.

Sifat quyidagi hollarda kuchli turlanadi:

Agar sifat oldida artikl yoki olmosh bo'lmasa: *kaltes Wasser*;

Agar sifat oldida sanoq son bo'lsa: *zwei gute Freunde*;

Agar sifat oldida viele, einige, venige noaniq olmoshlar bo'lsa: *viele, grose Häuser*

Sifatlarning kuchli turlanishi

Birlik

Kelishiklar	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod
NOM.	Guter Freund	Gute Milch	Gutes Brot
GEN.	Guten Freund	Guter Milch	Guten Brot
DAT.	Gutem Freund	Guter Milch	Gutem Brot
AKK.	Guten Freund	Gute milch	Gutes Brot

Ko'plik
(hamma rodlar uchun)

NOM.	Gute Freunde
GEN.	Guter Freunde
DAT.	Guten Freunde
AKK.	Gute Freunde

§30. Sifatlarning aralash turlanishi

Aralash turlanishda sifatlar ba'zi kelishiklarda kuchli turlanish qo'shimchasini , ba'zi kelishiklarda esa kuchsiz turlanish qo'shimchasini oladi. Agar sifat oldida birlikda noaniq artikl yoki mein, dein, sein, unser, euer, ihr egalik olmoshlari shuningdek, kein so'zi bo'lsa , bunday holda sifatlar aralash turlanish bilan turlanadi.

Sifatlarning aralash turlanishi

Birlik

kelishiklar	Mujskoy rod
NOM.	Ein(mein,dein,sein,unser,kein)guter Freund
GEN.	eines(meines,deines,seines,unseres,keines)guten Freund
DAT.	einem(meinem,deinem,seinem,unsem,keinem)guten Freund
AKK.	einen(meinen,deinen,seinen,unseren,keinen)guten Freund

kelishiklar	Jenskiy rod
NOM.	Eine(meine,deine,seine,unsere,keine)gute Freund
GEN.	einer(meiner,deiner,seiner,unserer,keiner)guten Freund
DAT.	einer(meiner,deiner,seiner,unser,keiner)guten Freund
AKK.	eine(meine,deine,seine,unsere,keine)gute Freund

Kelishiklar	Sredniy rod
NOM.	Ein(mein,dein,sein,unser,kein)gutes Zimmer
GEN.	eines(meines,deines,seines,unseres,keines)guten Zimmer
DAT.	einem(meinem,deinem,seinem,unsem,keinem)guten Zimmer
AKK.	ein(mein,dein,sein,unser,kein)guten Zimmer

Aralash turlanishdagi sifatlar ko'plikda bir hil turlanmaydi

Agar sifat oldida birlikda noaniq artikl bo'lsa, sifat ko'plikda artiklsiz ishlatilib , kuchli turlanadi.

Birlik

Ko'plik

NOM.	Ein kleines Kind	.	kleine Kind
GEN.	Eines kleinen Kind.		kleiner Kind
DAT. .	Einem kleinen Kind.		kleinen Kind
AKK.	Ein kleines Kind.		kleine Kind

b) agar sifat oldida egalik olmoshlari yoki *kein* so'zi bo'lsa ,sifat ko'plikda kuchsiz turlanadi:

NOM.	meine guten
DAT.	meiner guten
GEN.	meinen guten
AKK.	meine guten

§31.Sifat darajalari (Die Komparationsstufen)

Nemis tilida ,o'zbek tilidagidek ,sifatlarning uch darajasi bor:

1. oddiy daraja (der Positiv)
2. qiyosiy daraja (der Komparativ)
3. orttirma daraja (der Superlativ)

1. Qiyosiy daraja

Qiyosiy daraja predmetdagi biror belgisining ikkinchisidagidan biroz ortiq yoki kamligini ko'rsatadi.

Nemis tilida qiyosiy daraja oddiy darajadagi difatga -er qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bu qo'shimcha odatda o'zbek tilidagi -roq qo'shimchasiga to'g'ri keladi .

O'zagida a, o, u unilari bo'lgan sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalarda odatda umlaut oladi:

schlang – schlänger

lang - länger

groß - größer

Ikki predmetlar chog'ishtirilganda als so'zi qo'llanib, o'zbek tilida -dan qo'shimchasi yoki 'qaraganda' so'zi ishlatiladi.

Sie ist fleißiger als sein Freund.

Diese Straße ist breiter als unsere Straße

2. orttirma daraja

Orttirma daraja predmetdagi biror belgining boshqa barcha predmatlardagidan ortiqchiligini, nihoyatda kuchli ekanligini ko'rsatadi .

O'zbek tilida orttirma daraja oddiy darajadagi sifatlarning oldidan juda, g'oyatda ,eng so'zlarini keltirish bilan ham yasaladi ,nemis tilida esa orttirma daraja oddiy darajadagi sifatga -st qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: bunday holda sifat oldida *am* predlogi ham bo'ladi, masalan:

Oddiy daraja	qiyosiy daraja	orttirma daraja
Klein	kleiner	am kleinsten

Aniqlovchi bo'lib kelgan sifat aniqlanmish otning rodi ,kelishigi va soniga qarab ,tegishli artikl va qo'shimchalarni oladi, masalan:

NOM. der langste Bleistift
GEN. des langsten Bleistiftes
DAT. dem langsten Bleistift
AKK. den langsten Bleistift

Quyidagi sifatlarning qiyosiy darajalari boshqacha yasaladi :

gut – besser – am besten, der besten
viel – mehr – am meisten
gern – lieber - am liebsten
hoch – höher – am höchsten
nah – näher – am nächsten

Übungen zum Thema “Das Adjektiv“

Übung 1. Setzen Sie die Adjektiv in richtige Form ein.

1. Unten liegt ein (groß) Sportsaal. 2. Das ist ein (schön) Geschenk für die Mutter. 3. In der Zeitung wurde ein (interessant) Artikel gedrückt. 4. Er ist ein (berühmt) Schriftsteller.

Übung 2. Setzen Sie statt der Punkte die entsprechenden Adjektiv ein.

1. Salima liest 2. Wir gingen durch 3. Das Radio „Deutsche Welle“ bringt 4. Mir gefällt... .5. Die Studenten singen. (das blaue Kleid, einen neuen Roman, ein schönes Lied, eine breite Straße, eine interessante Nachricht.

Übung 3. Deklinieren Sie im Singular und Plural.

- a) der neue Sofa, das neue Buch, die schwere Arbeit.
- b) ein guter Freund, eine bekannte Frau, ein großes Wörterbuch.
- c) guter Student, gute Schülerin, kluges Kind.

Übung 4. Beantworten Sie die Fragen.

1. Wo befindet sich ihr neues Institut? 2. Ist es ein modernes Gebäude? 3. In welchem Stock liegt deine neue Bibliothek? 4. Aus wieviel Stock besteht dein neues Institut?

Übung 10. Bilden Sie die Steigerungsstufen der Adjektive.

der Positiv der Komparativ der Superlativ

gut	-
nah	-
hoch	-
viel	-
gern	-
bald	-
laut	-
klar	-
zart	-
sparsam	-
groß	-
kurz	-
lang	-

Teste zum Thema "Das Adjektiv"

1. Setzen Sie das Adjektiv ein.

Der Baikalsee ist der ... See der Welt.

- A) tief
- B) größte
- C) kleinste
- D) dunkelste

2. Setzen Sie das Adjektiv ein.

Taschkent ist ... als Bucharas.

- A) jung
- B) jünger
- C) jungsten
- D) am jungsten

3. Ergänzen Sie den Satz.

Nein, wir haben ... Mann noch nie gesehen.

- A) diesen alten

B) diesen alter

C) dieses alte

D) dieser alt

4. Ergänzen Sie den Satz.

Mein Sohn ist der ... Sportler.

A) gut

B) beste

C) besser

D) guter

5. Finden Sie die Steigerungstufen der Adjektive mit dem Fehler.

A) alt - älter - am ältesten

B) klar - klärer - am kläresten

C) gut - besser - am besten

D) viel - mehr - am meisten

6. Ergänzen Sie den Satz.

Der Junge macht das Tonbandgerät ... um gut zu hören.

A) lautere

B) lauter

C) langsam

D) länger

7. Setzen Sie das Adjektiv ein.

Die U-Bahn ist das ... Verkehrsmittel.

A) bequemer

B) bequemste

C) bequemsten

D) bequemen

8. Ergänzen Sie den Satz.

Eine ... Zeit studierte unser Kollege im Ausland.

- A) längere
- B) langes
- C) längerer
- D) läng

9. Ergänzen Sie den Satz.

... Dame? Ich kenne sie nicht

- A) Dieses alte
- B) Diese alte
- C) Diesem alten
- D) Dieser alte

10. Finden Sie die Adjektive ohne Fehler.

- A) nah - näher - am höchsten
- B) kalt - kälter - am kältesten
- C) gut - besser - am besten
- D) viel - mehrer - am meisten

V. Son. (Das Numerale, das Zahlwort)

Pretmedning son-sanog'ini yoki tartibini bildirgan so'z turkumi son deb ataladi.

Sonlar ikki turga bo'linadi: aniq son(eins zwei das vierte),noaniq son (viel,wenig,,erwas)

Aniq sonlar o'zaro yana bir necha turga bo'linadi:

- 1)sanoq sonlar
- 2)tartib sonlar
- 3)kasr sonlar

§32. Sanoq son (das Grudzahlwort)

Predmetning sonini bildirib wieviel? (Qancha?, necha?,nechta?) so'rog'iga javob bo'lib kelgan eins, zwei, drei kabi sonlar sanoq son deb ataladi.

Sanoq son turlari.

Sanoq sonlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: tub son, yasama son, qo'shma son.

1.bir o'zakli sonlar tub son deyiladi:

1-eins	5-fünf	9-neun
2-zwei	6-sechs	10-zehn
3-drei	7-sieben	11-elf
4-vier	8-acht	12-zwölf

100-hundert

1000-tausend

100.000-eine Million

100.000.000-eine Milliarde

2.yasama sonlar tub sonlarga -zig qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. -zig qo'shimchasi bilan o'nliklar yasaladi,lekin 20,30,60,70 sonlari esa boshqacha yasaladi:

2-zwei	zwanzig -20
3-drei	dreissig-30
4-vier	vierzig-40
5-fünf	fünfzig-50
6-sechs	sechzig-60
7-sieben	siebzig-70
8-acht	achtzig-80
9-neun	neunzig-90

3. ikki yoki undan ortiq sonlardan tuzilgan son qo'shma son deyiladi.

Qo'shma sonlar ikki yo'l bilan yasaladi:

A) 13dan 19 gacha bo'lgan qo'shma

Sonlar tub sonlarga zehn sonini qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Ammo sechzehn va siebzehn sonlari noto'g'ri tuziladi, chunki sechs sonidan s tovushi , sieben sonidan esa en tovushi tushib qoladi.

Drei

Vier

Fünf

Sechs

zehn

Sieben

Acht

Neun

Nemis tilida zehn soni birlik sonlardan keyin keladi, o'zbek tilida esa aksinchadir.

Bir

Ikki

Uch

To'rt

Besh

Olti

Yetti

Sakkiz

To'qqiz

b) 21 dan 99 gacha bo'lgan qo'shma sonlar und bog'lovchisi yordami bilan quyidagi tartibda yasaladi; birinchi o'rinda birlik soni, ikkinchi o'rinda und bog'lovchisi, uchinchi o'rinda o'nlik soni kelib, ular qo'shib yoziladi, masalan:

21 – einundzwanzig

44-vierundvierzig

Nemis tilida o'zbek tilidagi kabi, sanoq sonlar gapda ko'pincha aniqlovchi bo'lib keladi. Agar ot oldida sanoq son kelsa, otning artikli tushiriladi:

Ich kaufe heute *drei Bücher*. (*das Buch*)

Auf dem Tisch liegen *fünf Hefte*. (*die Hefte*)

O'zbek tilida sanoq sonlardan keyin ot birlikda ishlatiladi, nemis tilida esa ikkidan ortiq sondan keyin otlar hamma vaqt ko'plikda qo'llanadi.

Ein(s), zwei, drei sonlardan boshqa sonlar turlanmaydi.

Shulardan zwei, drei sonlari faqat qaratqich kelishigida, zweier, dreier shaklida ,jo'nalish kelishigida esa zweien ,dreien shaklida bo'ladi.

Ein(s)soni noaniq artikl kabi hamma kelishiklarda turlana oladi.

§33. Tartib son (Das Ordnungszahlwort).

Predmetning tartibini bildirib, der wievielte?die wievielte?das wievielte?(nechanchi?)so'roqlariga javob bo'lgan sonlar tartib son deyiladi.

Masalan:

der zweite Stock, der fünfte Januar, der neunte Mai,

O'zbek tilida tartib sonlar sanoq sonlarning oxiriga –nchi, yoki –inchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi,nemis tilida esa sanoq sonlarning oxiriga –te yoki –ste qo'shimchasi qo'shiladi;2 dan 19 gacha bo'lgan sonlarda –te ,20 dan ortiq bo'lgan sonlarga esa –ste qo'shimchasi qo'shiladi ,masalan:

der zwölfte, der achtzehnte, der neunzehnte

der (die, das) zwanzigste,

der (die, das) fünfundzwanzigste

der (die, das) vierundvierzigste.

Ein , dre , acht sonlaridan tartib son noto'g'ri yasaladi:

Eins –bir der (die, das) erste – birinchi

Drei-uch der (die, das) dritte-uchinchi

Acht-sakkiz der (die, das) achte-sakkizinchi

Tartib sonlar gapda aniqlovchi bo'lib, aniqlanmish otning rodiga qarab birlikda der, die, das; ko'plikda die artikli bilan birga ishlatiladi,masalan:

Am dritten Oktober begehen wir den Wiedervereinigungstag von Deutschland.

Karim aus der siebenten Klasse hat heutigen Wettbewerb gesiegt.

Der Januar ist der erste Monat des Jahres.

Heute haben wir den neunten Mai.

Am achten März feiern wir den internationalen Frauentag.

Tartib sonlarning turlanishi

Tartib sonlar aniq artikl bilan qo'llanganligi sababli ,xuddi sifatlardek,kuchsiz turlanadi:

Birlik

Kelishiklar	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod
Nom.	Der Tag	Die Hafte	Das Zimmer

Gen.	Des Tages	Der Hafte	Des Zimmer
Dat.	Dem Tage	Der Hafte	Dem Zimmer
Akk.	Den Tag	Die Hafte	Das Zimmer

Ko'plik (hamma rodlar uchun)

NOM.	Die ersten Tage,Hafte, Zimmer
GEN.	Der ersten Tage,Hafte, Zimmer
DAT.	Den ersten Tagen,Haften, Zimmer
AKK.	Die ersten Tage,Hafte, Zimmer

§34. Kasr son (die Bruchzahlwörter).

Kasr sonlar sanoq sonlarga *-tel*(14-19gacha)yoki *-stel* (20 dan ortiq) qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi,masalan:

$\frac{1}{4}$ -ein Viertel to'rt dan bir

$\frac{3}{4}$ -drei viertel to'rt dan uch

$\frac{1}{10}$ -ein zehntel o'ndan bir

$\frac{7}{10}$ -sieben zehntel o'ndan yetti

1 $\frac{1}{2}$ (bir yarim)soni anderthalb

2 $\frac{1}{2}$ (ikki yarim) soni zweieinhalb deb ataladi.

Kasr sonlar ,o'zbek tilidagidek 0.2;0.10;2.5 tarzida yozilib quyidagicha o'qiladi:

0,2 - null komma zwei

0,10 - null komma zehn

§ 35. FE'L. (DAS VERB).

Fe'l predmetning ish-harakatini yoki holatini bildiradi.

Nemis tilida fe'l o'zbek tilidagidek,shaxs,son,zamon va mayl bilan turlanadi.

Fe'l gapda asosan kesim vazifasida keladi:

Wir lernen schon drei Jahre Deutsch- biz uch yildan beri nemis tilini o'rganamiz.

§ 36.FE'LLARNING MA'NO JIHATIDAN BO'LINISHI.

Fe'llar ma'no jihatidan uch gruppaga bo'linadi:

1. MUSTAQIL FE'LLAR.

Mustaqil fe'llar to'la ma'noga ega bo'lib ,nemis tilidagi fe'llarning ko'p qismini tashkil qiladi:

2. YORDAMCHI FE'LLAR .

Haben,sein,werden fe'llari yordamchi fe'llardir. Bular qo'shma fe'l shakllarini hosil qilishda qo'llanadi:

Ich habe gelesen-(Perfekt)

Ich werde lesen-(Futurum)

Er ist gekommen-(Perfekt)

Eslatm.haben sein, werden fe'llari ba'zan o'z mustaqil ma'nosida ham qo'llanadi: haben –bor bo'lmoq, sein va werden –bo'lmoq.

3. MODAL FE'LLAR .

Modal fe'll oltita bo'lib (müssen,sollen,wollen,mögen, können,dürfen)alohida qo'llanmaydi,ular mustaqil fe'lning infinitiv shakli bilan birgalikda qo'shma kesim hosil qiladi:

Er will gut lernen- u yaxshi o'qimoqchi.

Sein ,werden(ba'zan), bleiben, heissen, scheinen fe'llari gapda ot kesim hosil qilishda bog'lama bo'lib keladi,masalan:

§37.Fe'llarning ega va to'ldiruvchiga munosabati jihatidan bo'linishi.

Fe'llar egaga munosabati jihatidan ikki hil bo'ladi: shaxsli fe'llar , shaxssiz fe'llar.

Shaxsli fe'llar shaxs, son va zamon kabi ma'nolarni aniq anglatadi va ular bu ma'nolarni ifodalaydigan shakllarni oladi, chunonchi:

Shaxssiz fe'llar ko'pincha tabiat voqea-hodisalarini tasvir qilishda qo'llanib, es olmoshi bilan birga ishlatiladi, masalan:

Es regnet—yomg'ir yog'moqda

Es schneit – qor yog'moqda

Es blitzt – chaqmoq chaqmoqda

Es tagt – tong otmoqda

Es dunkelt – qorong'i bo'lyapti

Fe'llar ma'nosi va boshqa so'zlar bilan bog'lanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. O'timli fe'llar (transitive Verben)

2. O'timsiz fe'llar (intransitive Verben).

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi to'ldiruvchini talab etib, wen? was? (kimni? nimani?) so'roqlariga javob bo'lib keladi, masalan:

Schreiben (yozmoq)

Nehmen (olmoq)

Hören (eshitmoq)

Lesen (o'qimoq)

Bu kabi fe'llar o'timli fe'l bo'lib, tushum kelishigidagi to'ldiruvchi bilan qo'llanadi:

Ich schreibe einen Brief –Men xat(ni) yozaman.

Er hat sein Heft genommen – U daftarini oldi

O'timsiz fe'llar boshqa predmetga o'tmaydigan ish-harakatni anglatadi.

O'timsiz fe'ldan keyin to'ldiruvchi qaratqich yoki jo'nalish kelishigida ba'zan predlogli to'ldiruvchini ham talab qiladi, masalan:

Sitzen (o'tirmoq)

Schlafen (uxlamoq)

Leben (yashamoq)

O'zlik fe'llar o'timsiz fe'l bo'lib, ish-harakat bajaruvchining o'ziga o'tishini anglatadi; bunday fe'llar – sich olmoshi bilan birga qo'llanadi:

Sich setzen (o'tirmoq)

Sich furchten (qo'rqmoq)

Sich interessieren (qiziqmoq)

Sich waschen (yuvinoq)

§ 38.FE'LLARNING OLD QO'SHIMCHALARI

Nemis tilida ko'p fe'llar old qo'shimchalar yordami bilan yasaladi. Old qo'shimchalar ikki turli bo'ladi: ajraladigan old qo'shimchalar va ajralmaydigan old qo'shimchalar. Auf-, an-, aus-, ab-, nach-, vor-, zu-, fort- kabi old qo'shimchalar ajraladigan bo'lib, ularga hamma vaqt urg'u tushadi:

Aufstehen, abnehmen, ankommen, abschreiben, fortsetzen, zurückkommen, nachsehen.

Ajraladigan old qo'shimcha Präsens , Imperfekt va Imperativda tuslanganida , mustaqil gaplarda fe'ldan ajralib, gapning oxirida keladi.masalan;

Abschreiben (ko'chirib olmoq)

Die Schuler schreiben die Übung ab

O'quvchilar mashqni ko'chirib yozadi.

Aufstehen (o'rindan) turmoq

Ich stehe immer früh auf

Men hamma vaqt erta turaman

Be-,ge-,er-,ver-,ze-,rent-,emp-,mi old qo'shimchalari ajralmaydigan old qo'shimchalar bo'lib ,fe'ldan hech qachon ajralmaydi va ularga urg'u tushmaydi :

Beschreiben,besuchen,gefallen.

Ajralmaydigan old qo'shimchali fe'llarning prasens imperfekt va imperativda tuslanishi huddi old qo'shimchasiz fe'llarning tuslanishiga o'xshaydi.

Karim erzähl ein Märchen

Karim ertak aytib beradi.

Durch-,über-,unter-,um-,wieder- old qo'shimchalari old qo'shimchalari ba'zi fe'llarda ajraladi , ba'zi fe'llarda esa ajralmaydi.

Agar bu qo'shimchalar urg'u olsa feldan ajraladi ,urg'u olmasa ,ajralmaydi:

Übersetzen(tarjima qilmoq)

Übersetzen(olib o'tmoq)

Beschreiben(tasvirlamoq)

Umschreiben(ko'chirib yozmoq)

§39.FE'LNING NOANIQ SHAKLI (DER INFINITIV)

Nemis tilida fe'lning noaniq shakli -infinitiv -en qo'shimchasiga ega bo'lib ,bu o'zbek tilidagi -moq qo'shimchasiga to'g'ri keladi:

Kommen(kelmoq)

Gehen(bormoq)

Lernen(o'qimoq)

Infinitiv shaxs , son, mayl va zamoni ko'rsatmay ,faqat harakat nomini bildiradi.

§ 40 .Fe'lning sifatdosh shakllari

Nemis tilida fe'llarning sifatdosh shakli ikki xil:

- 1) Partizip I- birinchi sifatdosh- lesend ,lachend,laufend
- 2) Partizip II -ikkinchi sigatdosh -gelesen,gelacht,gelaufen

§ 41.Partizip I ning yasalishi.

3. Ajralmaydigan old qo'shimchali va –ieren qo'shimchali fe'llarning Partizip II shaklini yasashda ge- old qo'shimchasini olmay, faqat –t yoki –en qo'shimchasini oladi , xolos, masalan:

Infinitiv	Partizip II
Besuchen	besucht
Erzählen	erzählt
Marschieren	marschiert
Studieren	studiert
Bekommen	bekommen
Verstehen	verstanden

4. Ajraladigan old qo'shimchali fe'llarda ge- qo'shimchasi fe'lning negizi bilan old qo'shimchaning o'rtasida keladi:

Infinitive	Partizip II
Aussuchen	ausgesucht
Zuhören	zugehört
Aufstehen	aufgestanden
Abgeben	abgegeben

Partizip I fe'l negiziga -e(nd) qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:
fragend,lachend,stehend.

Gapda Partizip I aniqlovchi yoki hol bo'lib keladi.

Partizip I gapdagi vasifasiga qarab ,o'zbek tiliga odatda sifatdosh yoki ravishdosh bilan tarjima qilinadi,masalan:

Der lesende Schuler (aniqlovchi)

O'qiyotgan o'quvchi

Das weinende Kind (aniqlovchi)

Yig'layotgan bola

§ 42. Partizip II ning yasalishi.

1. Kuchsiz fellarning Partizip II shakli fe'l negizi oldiga ge- qo'shimchasi va oxiriga -(e)t qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Infinitiv	Partizip II
Fragen	gefragt
Machen	gemacht
Lernen	gelernt

2. Kuchli fe'llarning Partizip II shakli quyidagicha yasaladi.

Fe'l negizi oldiga ge- qo'shimchasi va oxiriga -en qo'shimchasi qo'shiladi:

Infinitiv	PartizipII
Lesen	Gelesen
Fahren	Gefahren
Kommen	Gekommen

Ba'zi kuchli fe'llar esa o'zagidagi unlisini ham o'zgartiradi:

Schreiben-geschrieben
Sprechen-gesprochen
Trinken-getrunken

§ 43. Fe'llarning tuslanish jihatidan bo'linishi.

Nemis tilida hamma fe'llar tuslanish jihatidan 5 guruhga bo'linadi:

Kuchli fe'llar (die starken Verben)

Kuchsiz fe'llar (die schwachen Verben)

Präterito-Präsentia fe'llari

Aralash fe'llar (die gemischten Verben)

Noto'g'ri fe'llar (die unregelmäßigen Verben)

§ 44. Kuchli fe'llar.

Kuchli fe'llarning xususiyatlari:

Imperfekt va ba'zan Partizip II shakllarida o'zakdagi unli tovush o'zgaradi; bu fonetik hodisa ablaut deyiladi.

Partizip II shaklida hamma vaqt –en qo’shimchasini oladi.

O’zakdagi a, au tovushlari II va III shaxs birligida Umlaut oladi, e tovushi esa i yoki ie ga almashadi:

Fahren – du fährst, er fährt; sprechen—du sprichst er spricht.

Kuchli fe'llar o'zakdagi tovushlarining o'zgarishiga ko'ra yetti guruhga bo'linadi. Bu guruhlar ablaut qatori deyiladi.

Quyidagi jadvallarda kuchli fe'llarning o'zak tovushlari o'zgarishining namunalari ko'rsatiladi.

Birinchi guruh.

Birinchi guruhga fe'lning infinitiv shaklida *ei* diftonggi Imperfekt va Partizip II shakllarida esa qisqa *i* yoki cho'ziq *ie* unlisi bo'lgan fe'llar kiradi.

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
Ei	ie	ie
Schreiben(yozmoq)	Schrieb	Geschrieben
Bleiben(qolmoq)	Blieb	Geblieben
Scheinen(ko'rinmoq)	Schien	Geschienen
Schreien(qichqirmoq)	Schrie	Geschrieen

Ikkinchi guruh

Ikkinchi guruhga Infinitiv shaklida cho'ziq *ie*, Imperfekt va Partizip II da *o* unlisi bo'lgan fe'llar kiradi.

Uchinchi grupp.

Uchinchi guruhga Infinitiv o'zagida *nd, ng, nk, nn* kabi undosh birikmasi bo'lib, Imperfekt va Partizip II shakllarida *a, o* yoki *u* unililari bo'lgan fe'llar kiradi.

To'rtinchi grupp.

To'rtinchi guruhga *r, l, m, n* undoshlari, Infinitiv, Imperfekt va Partizip II shakllarida *a-o* unililari bo'lgan fe'llar kiradi.

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
e	a	O

Brechen(sindirmoq)	brach	gebrochen
Befehlen(buyurmoq)	befahl	befohlen
Nehmen(olmoq)	nahm	genommen

Shu gruppaga *kommen* fe'li ham kiradi: *kommen, ist gekommen*.

§ 45. Kuchsiz fe'llar.

Kuchsiz tuslanishdagi fe'llarning asosiy shakllarini yasashda ularning o'zagidagi tovushlari o'zgarmaydi. Ular Imperfektda *-te* va partizip II shaklida *-t* qo'shimchasini oladi, masalan:

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
Lernen (o'qimoq)	lernte	gelernt
Fragen (so'ramoq)	fragte	gefragt
Machen (qilmoq)	machte	gemacht

§ 46. Präterito- Präsensia fe'llari.

Präterito- Präsensia guruhiga *müssen, sollen, wollen, dürfen, können, mögen, wissen* fe'llari kiradi, bu fe'llar ma'no jihatidan modal fe'llar deb ataladi. (*wissen* dan tashqari).

Bu fe'llar boshqa fe'llardan ma'nosi va tuslanishi jihatidan ancha farq qiladi.

Modal fe'llar ish-harakatni ko'rsatmay, faqat shaxsning harakatga munosabatini bildiradi, xolos. Masalan, *wollen* –chi; xohlamoq:

Ich will lesen – men o'qimoqchiman, o'qishni xohlayman

Können – qila olmoq

Ich kann lesen – men o'qiy olaman

Müssen – zarur, kerak, lozim:

Ich muss gut lernen – men yaxshi o'qishim kerak

Sollen – majbur bo'lmoq:

Er soll viel arbeiten – u ko'p ishlashi zarur

Dürfen – ruxsat, mumkin

Der Kranke darf jetzt zur Arbeit gehen – kasal endi ishga borishi mumkin

Mögen –istamoq, hohlamoq

Ich mag dieses Gedicht auswendig lernen

Men bu she'rni yodlashni istayman(hohlayman)

Gapda modal fe'llar yolg'iz qo'llanmay, boshqa fe'lining Infinitiv shakli bilan birga keladi.

Modal fe'llarning Iperfekt va Partizip II shakllari asosan kuchsiz fe'llar kabi yasaladi agar umlaut bo'lsa, tushib qoladi. Masalan:

Grundformen

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
Können	konnte	gekonnt
Dürfen	durfte	gedurft
Wollen	wollte	gewollt
Mögen	mochte	gemocht
Müssen	mußte	gemußt
Sollen	sollte	gesollt

Eslatma. Wissen (bilmoq)fe'li ma'no jihatidan modal fe'l hisoblanmasada lekin tuzilishi jihatidan präterio-präsentia fe'llari guruhiga kiradi:

Wissen-wusste-gewusst

§ 47. ARALASH FE'LLAR

Brennen (yonmoq), kennen (bilmoq, tanimoq), nennen (atalmoq), rennen (tez uchmoq) fe'llari kuchsiz fe'llarning maxsus bir gruppasini tashkil qilib,ular aralash tuslanadi.

Aralash tuslanadigan fe'llarda ham kuchli, ham kuchsiz tuslanishdagi fe'llarning belgilari bo'ladi: ular Imperfektda –te Partizip II da –t qo'shimchasini oladi. Ayni vaqtda o'zagidagi e tovushi a ga tovushiga almashadi:

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
Brennen	brannte	gebrannt
Kennen	kannte	gekannt
Nennen	nannte	genannt

§ 48. NOTO'G'RI FE'LLAR.

Sein (bo'lmoq), haben (bor bo'lmoq),

Werden (bo'lmoq) stehen (turmoq) gehen (yurmoq), tun (qilmoq) fe'llari asosiy shakllarning yasalishi va tuslanishi jihatidan boshqa fe'llardan farq qiladi, shuning uchun bu fe'llar noto'g'ri fe'llar deb yuritiladi.

Notog'ri fe'llarning asosiy shakllari

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
Sein	war	gewesen
Haben	hatte	gehabt
Werden	wurde	geworden
Gehen	ging	gegangen
Stehen	stand	gestanden
Tun	tat	getan

§ 49. FE'LLARNING TUSLANISHI

Nemis tilida fe'llar shaxs –son, zamon, va mayl bilan tuslanadi.

§ 50. FE'LNING ZAMONLARI

Nemis tilida fe'llarning olti zamon shakli bor; hozirgi zamon uchun bir shakl (Präsens)o'tgan zamon uchun uch shakl (Imperfekt, Perfekt, Plusquamperfekt); kelasi zamon uchun ikki shakl (Futurum I va Futurum II).

Bularning har biri tuslanishi va qo'llanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bulardan Präsens, Imperfekt sodda shakl; Plusquamperfekt, Futurum I va Futurum II esa murakkab shakl deyiladi.

Eslatma.Futurum II juda kam qo'llanadi.

§ 51. FE'LNING PRÄSENS da tuslanishi.

Präsens Infinitiv o'zagiga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi.

Birlik	ko'plik
I shaxs -e	I shaxs -en
II shaxs -st	IIshaxs -t
III shaxs -t	III shaxs -en

Bu shaxs qo'shimchalari hamma fe'llarning Präsens shaklida qo'llanadi.

Lernen fe'lining Präsens da tuslanishi:

Ich lerne	wir lernen
Du lernst	ihr lernt
Er	
Sie lernt	sie lernen
Es	Sie lernen

1.O'zagida d, t undoshi yoki gn, chn, ffn, dn kabi undosh birikmasi bo'lgan melden, arbeiten, zeichhen, öffnen kabi fe'llarda II va III shaxs birligida va II shaxs ko'plikda –et qo'shimchasini oladi.O'zagida a unlisi va au diftongi bor fellar II va III shaxs birligida umlaut oladi.Masalan:Fahren(bormoq)

Birlik	Ko'plik
Ich fahre	wir fahren
Du fährst	ihr fahrt
Er, sie, es fährt	sie fahren

Laufen

Birlik	ko'plik
Ich laufe	wir laufen
Du läufst	ihr lauft
Er, sie, es läuft	sie laufen

Präsensda modal fe'llarning tuslanishi.

Können	wollen	müssen
Ich kann	ich will	ich muß
Du kannst	du willst	du mußt
Er kann	er will	er muß
wir können	wir wollen	wir müssen
ihr könnt	ihr wollt	ihr müßt
sie können	sie wollen	sie müssen
sollen	dürfen	mögen
ich soll	ich darf	ich mag
du sollst	du darfst	du magst
er soll	er darf	er mag

wir sollen	wir dürfen	wir mögen
ihr sollt	ihr dürft	ihr mögt
sie sollen	sie dürfen	sie mögen

ko'pligida shaxs qo'shimchalardan oldin e unlisi orttiriladi:

Birlik	ko'plik
Ich melde	wir melden
du meldest	ihr meldet
er sie es meldet	sie melden

2. kuchli fe'llar Präsens da tuslanganda II va III shaxs birligida o'zagidagi *a*, *au*, *e* unlisini o'zgartiradi, ya'ni

- 1) *a* o'rniga *ä*;
- 2) *au* o'rniga *äu*;
- 3) *e* o'rniga *I* yoki *ie* bo'ladi.

Präsensda aralash fe'llar kuchsiz fe'llardek tuslanadi:

Nennen (atamoq)	denken(o'ylamoq)
Ich nenne, denke	wir nennen, denken
Du nennst, denkst	ihr nennt, denkt
Er nennt, denkt	sie nennen, denken

Präsensda noto'g'ri fe'llarning tuslanishi:

Haben	sein	werden
Ich habe	ich bin	ich werde
Du hast	du bist	du wirst
Er hat	er ist	er wird
Wir haben	wir sind	wir werden
Ihr habt	ihr seid	ihr werdet
Sie haben	sie sind	sie werden

Eslatma. gehen, stehen, bringen noto'g'ri fe'llari Präsens da odatdagidek tuslanadi.

§52.PRÄSENS ning qo'llanishi.

Präsens qo'llanishiga qarab quyidagi ma'nolarni anglatadi.

1. Ish harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bo'layotganligini bildirib o'zbek tilidagi hozirgi zamon fe'l shakliga mos keladi:

Ich schreibe einen Brief-men xat yozyapman, yozmoqdaman.

Sie gehen in die Schule –ular maktabga ketyapti, ketmoqda.

2. Präsens kelasi zamon ma'nosida qo'llanib, o'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon fe'liga to'g'ri keladi.

Morgen fahren wir nach Fergana –biz ertaga Farg'onaga ketamiz.

Wann gehst du ins kino? -sen qachon kinoga borasan.

3. Doimiy bo'ladigan ish-harakatni bildirib, o'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon fe'liga to'g'ri keladi:

Die Erde dreht sich um die Sonne

Yer quyosh atrofida aylanadi.

§53. IMPERFEKT (PRÄTERITUM) ning yasalishi.

Kuchli va kuchsiz tuslanishdagi fe'llar Imperfekt da bir-biridan butunlay farq qiladi:

kuchsiz tuslanishdagi fe'l o'zagiga –te qo'shimchasini va shaxs qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi, ammo I va III shaxs birligida shaxs qo'shimchasi qo'shilmaydi.

O'zagiga t, d, ch, gn, dm kabi tovushlar bilan bitgan kuchsiz fe'lda –te qo'shimchasidan oldin e unlisi orttiriladi.

Infinitiv

Fragen (so'ramoq)

Baden (cho'milmoq)

Ich frag –te

ich bad-ete -

Du frag-te, -st

du bad-ete-st

Er frag –te –

er bad-ete-

Wir frag –te -n

wir bad –ete -n

Ihr frag-te –t

ihr bad –ete -t

Sie frag –te –n

sie bad –ete –n

Modal fe'llar Imperfekt da kuchsiz fe'llardek tuslanadi, lekin Infinitiv dagi Umlaut ni yo'qotadi.

Modal va wissen fe'llarning Imperfekt da tuslanish.

Wollen	können	müssen
Ich wollte	ich konnte	ich mußte
Du wolltest	du konntest	du mußttest
Er wollte	er konnte	er mußte
Wir wollten	wir konnten	wir mußten
Ihr wolltet	ihr konntet	ihr mußttest
Sie wollten	sie konnten	sie mußten
Sollen	dürfen	wissen
Ich sollte	ich durfte	ich wußte
Du solltest	du durfttest	du wußtest
Er sollte	er durfte	er wußte
Wir sollten	wir durften	wir wußten
Ihr solltet	ihr durftet	ihr wußtet
Sie solltet	sie durften	sie wußten

B) Kuchli tuslanishdagi fe'llar Imperfektda o'zagidagi unlisini o'zgartadi:

Singen fe'lining Imperfektu sang

Fahren	fuhr
Kommen	kam
Schreiben	schrieb

Bunday fe'llar tustlanganda, I va III shaxs birlikda hech qanday qo'shimcha olmay , boshqa shaxslarda esa tegishli shaxs qo'shimchalarini oladi.

Kommen

Birlik	ko'plik
Ich kam	wir kamen
Du kamst	ihr kamt
Er kam	sie kamen

Haben, sein, werden, tun fe'llari Imperfektda noto'g'ri tuslanadi:

Haben	sein	werden	tun
-------	------	--------	-----

Ich hatte tut	ich war	ich wurde	ich
Du hattest tat(e)st	du warst	du wurdest	du
Er hatte tat	er war	er wurde	er
Wir hatten taten	wir waren	wir wurden	wir
Ihr hattet tatet	ihr wart	ihr wurdet	ihr
Sie hatten taten	sie waren	sie wurden	sie

§ 54. Imperfektning qo'llanishi

Imperfekt o'tgan zamonda ro'y bergan voqea-hodisalarni bayon qilishda qo'llanadi, shuning uchun bu fe'l shakli o'tgan zamon hikoya fe'li deyiladi.

Imperfekt gapning ma'nosiga qarab, o'zbek tilidagi o'tgan zamon aniq fe'li ba'zan o'tgan zamon davom fe'lga to'g'ri keladi:

Ich kam – Men keldim, Men kelar edim

Du kamst – Sen kelding, Sen kelar eding

Er

Sie kam – U keldi, U kelar edi

Es

Er ist nach Moskau gefahren.

U moskvaga ketdi.

Die Schüler sind in die Schule gekommen.

O'quvchilar maktabga keldi.

§ 55. Perfekt ning yasalishi va qo'llanishi.

Perfekt qo'shma o'tgan zamon fe'li bo'lib, sein yoki haben yordamchi fe'lining Präsens shakli va asosiy fe'lining Partizip II shaklidan yasaladi. Tuslanishda haben

va sein fe'llari tuslanib, Partizip II o'zgarmaydi. Shuning uchun haben va sein fe'li o'zgaradigan qism, Partizip II esa o'zgarmaydigan qism deyiladi:

Ich habe den Lehrer gefragt – men o'qituvchidan so'radim.

Haben va sein yordamchi fe'llarning Perfekt da qo'llanilishi.

Quyidagi fe'llar Perfektda haben fe'li bilan tuslanadi:

O'timli fe'llarning hammasi

Wir haben gestern ein Diktat geschrieben.

Biz kecha diktant yozdik.

Tinch holatni bildiradigan o'timsiz fe'llarning bir qismi:

Ich habe heute gut geschlafen.

Men bugun yaxshi uxladim.

O'zlik fe'llarining hammasi:

Ich habe mich gewaschen.

Men yuvindim.

Shaxssiz fe'llar:

Es hat gestern geregnet.

Kecha yomg'ir yog'di.

Eslatma. Modal fe'llarning Perfekt formasi noto'g'ri yasaladi, ya'ni Partizip II o'rniga Infinitiv qo'llanadi:

Nasim hat auch ins Kino gehen wollen.

Nasim ham kinoga bormoqchi bo'ldi.

II. Quyidagi fe'llar Perfekt da sein yordamchi fe'li biln tuslanadi.

Harakatni yoki bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni ifodalaydigan o'timsiz fe'llar:

Die Studentin sind in die Hochschule gekommen.

Talabalar institutga keldi.

2. sein, bleiben, werden fe'llari:

Ich bin gestern zu Hause geblieben (gewesen).

Men kecha uyda qoldim (bo'ldim).

Fe'llarning Perfektda tuslanishi namunasi

Haben bilan

sein bilan

Ich habe gelesen

Du hast gelesen

Er hat gelesen

Wir haben gelesen

Ihr habt gelesen

Sie haben gelesen

Ich bin gekommen

du bist gekommen

er ist gekommen

wir sind gekommen

ihr seid gekommen

wir sind gekommen

Darak gapda haben va sein fe'llari ikkinchi o'rinda, Partizip II esa gapning oxirida keladi.

Perfekt o'tgan zamon suhbat shakli bo'lib, quyidagi hollarda qo'llanadi:

Gaplashish (savol-javob) da: Perfekt o'zbek tiliga asosan o'tgan zamon aniq fe'li bilan tarjima qilinadi:

Hast du dieses Buch gelesen?

Nein, ich habe es noch nicht gelesen.

Sen bu kitobni o'qidingmi?

Yo'q, men uni hali o'qiganim yo'q.

Qisqa axborotlarda:

Mein Bruder hat das Institut absolviert, jetzt arbeitet er als Lehrer.

Mening akam institutni bitirgan, hozir o'qituvchi bo'lib ishlamoqda.

§ 56. Plusquamperfekt ning yasalishi va qo'llanishi.

Plusquamperfekt qo'shma o'tgan zamon shakli bo'lib, haben yoki sein yordamchi fe'lining Imperfekt va asosiy fe'lining Partizip II shaklidan yasaladi.

Haben yoki sein yordamchi fe'lining Plusquamperfekt da qo'llanishi Perfekt da ko'rsatilgan qoidadagidek bo'ladi.

Fe'llarning Plusquamperfekt da tuslanishi namunasi

Haben bilan

Ich hatte gelesen

Du hattest gelesen

Er hatte gelesen

Wir hatten gelesen

Ihr hattet gelesen

sein bilan

ich war gekommen

du warst gekommen

er war gekommen

wir waren gekommen

ihr wart gekommen

Sie hatten gelesen

sie waren gekommen

Imperfekt o'tgan zamonda bo'lgan ish-harakatni ko'rsatsa, Plusquamperfekt undan ilgariroq bo'lib o'tgan ish-harakatni bildiradi.

Plusquamperfekt asosan ergash gaplarda qo'llanib, bosh gapdagi ish-harakatdan avvalroq bo'lgan ish-harakatni bildiradi. Bosh gapdagi ish-harakat esa Imperfektda ifodalanadi.

Ergash gapdagi Plusquamperfekt o'zbek tiliga ko'pincha o'tgan zamon sifatdoshi bilan tarjima qilinadi:

Nach dem wir die Prüfungen abgelegt hatten, fuhren wir nach Taschkent.

Biz imtihonlarni topshirgandan keyin Toshkentga ketdik.

Shuningdek, Plusquamperfekt mustaqil gaplarda ham qo'llanadi:

Dieses Buch schenkte ich meinem Onkel, ich hatte es in Samarkand gekauft.

Men Samarqandda sotib olgan kitobimni amakimga sovg'a qildim.

§ 57. Kelasi zamon (Das Futurum).

Nemis tilida kelasi zamon fe'li ikki turli (Futurum I, Futurum II) bo'lib, Futurum I ko'p qo'llanadi.

Futurum I qo'shma fe'l shakli bo'lib, werden yordamchi fe'lining hozirgi zamon shakli va asosiy fe'lining noaniq shakli (Infinitiv) dan yasaladi. Darak gapda werden yordamchi fe'li hamma vaqt gapda ikkinchi o'rinda, Infinitiv esa gapning oxirida keladi, masalan:

Ich werde in die Schule gehen.

Men maktabga boraman.

Fe'ning Futurum I da tuslanishi namunasi

Ich werde lernen

wir werden lernen

Du wirst lernen

ihr werdet lernen

Er wird lernen

sie werden lernen

Futurum I o'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon fe'lining ma'nosiga to'g'ri keladi:

Wann wirst du zu uns kommen?

Ich werde morgen abends kommen.

Sen biznikiga qachon kelasan?

(Men) ertaga kechqurun kelaman.

§ 58. Buyruq mayli (Der Imperativ)

Imperativ odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'lib, birlik va ko'plikda qo'llanadi:

Komm! (kel!)
Kommt! (kelingiz(lar))
Kommen sie! (keling! (xurmat uchun))

Imperativning yasalishi.

Imperativning II shaxs birligi fe'l negiziga –e qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi; ba'zan –e qo'shimchasi tushiriladi, ammo o'zagida d,t,n undoshlari bo'lgan fe'llarda –e qo'shimchasining bo'lishi shart. Buyruqda kishilik olmoshlari ishlatilmaydi:

Lernen(o'qimoq) –lerne! (o'qi)
Fragen (so'ramoq) – frage! (so'ra)

O'zagida a unlisi bo'lgan kuchli fe'llar umlaut olmaydi:

Fahren (bormoq) –fahr(e)! (bor)
Laufen(yugurmoq)- lauf(e) (yugur)

1.O'zagida –e unlisi bo'lgan kuchli fe'llar buyruq shaklining II shaxs birligida Präsens dagidek e unlisini i(e) unlisiga almashtiradi. Bunday fe'llarda –e qo'shimchasi hech vaqt qo'llanmaydi:

Infinitiv	Präsens II shaxs birligi	Imperativ
Nehmen	du nimmst (sen olyapsan)	nimm!(ol!)
Sperechen	du spricht (sen gapiryapsan)	spricht!(gapir!)

2.Imperativ ning II shaxs ko'pligi fe'l negiziga –t qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bu xozirgi zamon fe'liningII shaxs ko'pligiga mos kelib, ihr kishilik olmoshisiz qo'llanadi:

Infinitiv	Präsensning II shaxs ko'pligi	Imperativ
Lernen	ihr lernt (siz o'qiyapsiz)	lernt!(o'qingiz!)
Kommen	ihr kommt (siz kelyapsiz)	kommt!(kelingiz!)

Nemis tilida buyruqning hurmat shakli ham bo'lib Präsensning III shaxs ko'pligiga o'xshaydi, ammo Sie kishilik olmoshi fe'ldan keyin keladi:

Kommen Sie! (keling!)

Lesen Sie! (o'qing!)

Ajratiladigan old qo'shimchalar buyruq fe'lda, Präsensdagidek, fe'ldan ajralib gapning oxirida bo'ladi.

Aufstehen (o'rindan turmoq)-steh auf! O'rningdan tur!

Stehtauf! (o'rningizdan turingiz(lar))-stehen Sie auf! o'rningizdan turing!

§59.FE'L DARAJALARI(DAS GENUS).

Aniq va majhul daraja (Aktiv und Passiv)

Nemis tilida o'timli fe'llar aniq (Aktiv) va majhul(Passiv) darajada bo'la oladi.

Agar ish –harakat ega tomonidan bajarilib, to'ldiruvchifa qaratilsa,bu aniq daraja (Aktiv)deyiladi.

Der Vater schreibt einen Brief yoki

Die Arbeiter bauen das neue Hotel

Gaplarida der Vater va die Arbeiter so'zi ega bo'lib, ular aktiv rol o'ynaydi, shuning uchun schreiben va baueb fe'llari aniq darajada qo'llangan.

Agar ish –harakat ega tomonidan bajarilmay, to'ldiruvchi tomonidan bajarilib, egaga qaratilgan bo'lsa, fe'lining bunday darajasi majhul (Passiv) deyiladi.

Der Brief wird vom Vater geschriben.

Xat otam tomonidan yozilyapti.

Bu misollarda ega aktiv rol bajarmay, aksincha ish –harakat von bilan ifodalangan to'ldiruvchi tomonidan bajarilgan. To'ldiruvchi jonsiz predmet bo'lsa, durch predlogi ishlatiladi:

Die Erde wird durch die neue Maschine bearbeitet.

Yer mashina bilan haydaldi.

§ 60. PASSIVNING YASALISHI.

Passiv shakli werden yordamchi fe'li va asosiy fe'lining Partizip II shaklidan yasaladi.

Fe'ning Passiv shaklida Aktivdagidek 6 tur zamon shakli bor:

Präsens Passiv, Imperfekt Passiv, Perfekt Passiv, Plusquamperfekt Passiv ,Futurumpassiv ,Futurum II Passiv (Futurum II Passiv juda kam ishlatiladi.)

Passivdagi fe'ning zamoni, shaxsi va soni werden yordamchi fe'lining zamoni, shaxsi va soniga qarab aniqlanadi.

§ 61. Präsens Passiv.

Präsens Passiv shakli werden yordamchi fe'lining Präsens va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi.

BIRLIK	KO'PLIK
Ich werde gefragt-men so'ralaman	Wir werden gefragt-biz so'ralamiz
Du wirst gefragt –sen so'ralasan	Ihr werden gefragt – siz so'ralasizlar
Er wird gefragt – u so'raladi	Sie werden gefragt – ular so'raladilar

Präsens Passiv o'zbek tiliga ba'zan aniq daraja bilan ham tarjima qilinadi:

Ich werde gefragt-men so'ralaman o'rnida ko'pinch mendan so'rayotirlar deyiladi.

§62.Imperfekt Passiv.

Imperfekt Passiv shakli werden yordamchi fe'lining Imperfekt va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi, masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
Ich wurde	Wir wurden
Du wurdest	Ihr wurdet
Er wurde	Sie wurden

Darak gapda werden fe'li hamma vaqt gapning ikkinchi o'rnida bo'lib, Partizip II xech o'zgarmay doim gapning oxirida keladi,masalan:

Dieses Buch wurden von den Schülern gern gelesen.

Bu kitob o'quvchilar tomonidan havas bilan o'qiladi.

§63.PERFEKT PASSIV.

Perfekt Passiv shakli werden yordamchi fe'ning Perfekt va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi ammo geworden o'rniga worden qo'llanadi.

Birlik
Ich bin vorgeschlagen worden
Du bist vorgeschlagen worden
Er ist vorgeschlagen worden
Ko'plik
Wir sind vorgeschlagen worden
Ihr seid vorgeschlagen worden
Sie sind vorgeschlagen worden

§64.Plusquamperfekt Passiv.

Plusquamperfekt Passiv shakli werden yordamchi fe'lining Plusquamperfekt va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi, ammo geworden o'rniga worden qo'llanadi:

Plusquamperfekt P.v=sein+Imperfekt+Part II+worden

Perfekt va Plusquamperfekt Passiv ning o'zgarmaydigan qismi ikki so'zdan iborat bo'lib, gap oxirida keladi:

Er ist heute vom Lehrer gefragt worden.

§ 65. Futurum Passiv ning yasalishi.

Futurum Passiv shakli werden yordamchi fe'lining Futurum va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi.

Futurum P-v=werden+ Präsens+Partizip II+warden
--

Futurum Passiv ning o'zgarmaydigan qismi ikki so'zdan iborat bo'lib, gapning oxirida keladi:

Alle Schüler werden auch zu dieser Versammlung eingeladen werden.

Infinitiv ning Passiv shakli ham bor.

Infinitiv Passiv werden fe'lining Infinitiv va asosiy fe'ning Partizip II dan yasaladi ,masalan:

Infinitiv Aktiv	Infinitiv Passiv
Fragen(so'ramoq)	gefragt werden(so'ralmoq)
Rufen (chaqirmoq)	gerufen werden(chaqirilmoq)

§ 66.Passivning ma'nosi va qo'llanishi .

Ma'no jihatidan fe'ning Passiv va Aktiv formalari bir-biriga teng bo'lsada ,lekin ular turlicha qo'llanadi. Hozirgi zamoni ifodalashda Präsens Passiv va o'tgan zamoni ifodalashda asosan Imperfekt Passiv qo'llanadi.

§ 67. Fe'l mayllari.(Der Modus)

So'zlovchining ish –harakatga munosabatiga ko'ra fe'l maxsus ,mayllarga bo'linadi. Nemis tilida fe'ning uch mayli bor:1.Aniqlik mayli (der Indikativ). 2. Buyruq mayli(der Imperativ). 3. Konyuktiv (der Konjunktiv va Konditionalis I II).

§68. Aniqlik mayli .

Aniqlik mayli ish –harakat yoki holatning realligini ko'rsatadi. Masalan,
Ich lerne in der Schule.

Men maktabda o'qiyman.

Fe'ning aniqlik mayli olti xil zamon shakli hamda aktiv va passiv darajalarga egadir.

§69. Buyruq mayli.

Buyruq mayli buyurish, so'rash, iltimos kabi ma'nolarni ifodalab ,odatda II shaxsga qaratilgan bo'ladi. Buyruq mayli zamoni ko'rsatmaydi. Masalan:

Kommen die Tafel!

Doskaga chiq!

§ 70. Konyuktiv (Der Konjunktiv).

Konyunktiv real bo'lmagan istak,gumon ,ishonchsizlik kabi ma'nolarni ,shuningdek ,bajariladigan istak yoki taxminni bildiradi.

Konyunktivda olti xil zamon va ikki xil darajada (aktiv va passiv)bo'lsa ham,lekin ular yasalishi va qo'llanishi jihatidan aniqlik maylidan farq qiladi.

KONYUNKTIV ZAMON SHAKLLARINING YASALISHI

§ 71. PRÄSENS KONJUNKTIV.

Präsens Konjunktiv hozirgi zamon aniqlik mayliga –e qo'shimchasini va shaxs –son qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi, ammo III shaxs birligida –t qo'shimchasi o'rnida –e bo'ladi.

Fe'lning kuchli ,modal, noto'g'ri ekanligiga qaramay,Präsens Konjunktiv da fe'l o'zagidagi unli tovushlar o'zgarmaydi ;I va III shaxs qo'shimchalari birlikda bir xildir.

Fe'llarning Präsens Indikativ va Präsens Konjunktivda tuslanishi

Lernen		Geben	
Indikativ	konjunktiv	indikativ	konjunktiv
Ich lerne	Ich lerne	Ich gebe	Ich gebe
Du lernst	Du lernest	Du gibst	Du gebest
Er lernt	Er lerne	Er gibt	Er gebe
Wir lernen	Wir lernen	Wir geben	Wir geben
Ihr lernt	Ihr lernet	Ihr gebt	Ihr gebt
Sie lernen	Sie lernen	Sie geben	Sie geben

Haben ,sein,werden fe'llarining Präsens Indikativ va Präsens Konjunktiv da tuslanishining qiyosi

Haben		Sein		Werden	
indikativ	konjunktiv	indikativ	konjunktiv	indikativ	konjunktiv
Ich habe	Ich habe	Ich bin	Ich sei	Ich werde	Ich werde
Du hast	Du habest	Du bist	Du seist	Du wirst	Du werdest
Er hat	Er habe	Er ist	Er sei	Er wird	Er werde
Wir haben	Wir haben	Wir sind	Wir seien	Wir werden	Wir werden
Ihr habt	Ihr habet	Ihr seid	Ihr seid	Ihr werdet	Ihr werdet
Sie haben	Sie haben	Sie sind	Sie seien	Sie werden	Sie werden

Modal fe'llarining Präsens Indikativ va Präsens Konjunktivda tuslanishining qiyosiyi.

Wollen		Müssen		Sollen	
indikativ	konjunktiv	indikativ	konjunktiv	Indikativ	konjunktiv
Ich will	Ich wolle	Ich muß	Ich muß	Ich soll	Ich solle
Du willst	Du wollst	Du mußt	Du mußt	Du sollest	Du sollest
Er will	Er wolle	Er muß	Er muß	Er soll	Er solle
Wir wollen	Wir wollen	Wir	Wir müssen	Wir sollen	Wir sollen
Ihr wollt	Ihr wollt	müssen	Ihr muß	Ihr sollt	Ihr sollet
Sie wollen	Sie wollen	Ihr muß	Sie müssen	Sie sollen	Sie sollen
		Sie müssen			

können		Dürfen		mögen	
Ich kann	Ich könne	Ich darf	Ich dürfe	Ich mag	Ich möge
Du kannst	Du könnest	Du darfst	Du dürfest	Du magst	Du mögest
Er kann	Er könne	Er darf	Er dürfe	Er mag	Er möge
Wir können	Wir können	Wir dürfen	Wir	Wir mögen	Wir mögen
Ihr könnt	Ihr könnet	Ihr dürft	dürfen	Ihr mögt	Ihr möget
Sie können	Sie können	Sie dürfen	Ihr dürfet	Sie mögen	Sie mögen
			Sie dürfen		

Präsens Konjunktiv ning tarjiması uning gapdagi roliga bog'liqdir. Präsens Konjunktiv shior va vositali buyruqlarda qo'llanadi:

Es lebe die glückliche Usbekistan!

Yashasin o'zbek yoshlari!

Präsens Konjunktiv ko'pincha o'zlashtirma gapda qo'llanadi.

Ko'chirma gap:

Genosse Alijev sagt: "ich spreche gut deutsch".

O'rtoq Aliyev : "men nemis tilida yaxshi gapiraman " , -dedi.

O'zlashtirma gap:

Genosse Alijev sagt, daß er gut deutsch *spreche*.

O'rtoq Aliyev nemis tilida yaxshi gapirishligini aytdi.

Genosse Alijev sagt, daß er gut deutsch *spreche*.

O'rtoq Aliyev nemis tilida yaxshi gapirishligini aytdi.

§ 72. Imperfekt Konjunktiv.

Kuchsiz fe'llarning Imperfektiv Konjunktiv aniqlik mayli kabi yasaladi; kuchli fe'llarning negizidagi a,o,u unlilari umlaut olib, negiziga *-e* qo'shimchasi qo'shiladi:

Fe'llarning Imperfekt Indikativ va Imperfektiv Konjunktivda tuslanishi.

Lernen		Kommen	
Indikativ	Konjunktiv	Indikativ	konjunktiv
Ich lernte	Ich lernte	Ich kam	Ich käme
	Du lernstest	Du kammst	Du kämest
Du lernstest	Er lernte	Er kam	Er käme
Er lernte	Wir lernten	Wir kamen	Wir kämen
Wir lernten	Ihr lerntet	Ihr kamt	Ihr kämet
Ihr lerntet	Sie lernten	Sie kamen	Sie kämen
Sie lernten			

Haben, sein, warden fe'llarining Imperfekt Indikativ va Imperfekt Konjunktivda tuslanishining qiyosi.

Haben		Sein		Werden	
Indikativ	Konjunktiv	Indikativ	konjunktiv	indikativ	konjunktiv
Ich hatte	Ich hätte	Ich war	Ich wäre	Ich wurde	Ich würde
Du hattest	Du hättest	Du warst	Du wärest	Du wurdest	Du würdest
Er hatte	Er hätte	Er war	Er wäre	Er wurde	Er würde
Wir hatten	Wir hätten	Wir waren	Wir wären	Wir wurden	Wir würden
Ihr hattet	Ihr hättet	Ihr wahrt	Ihr wäret	Ihr würdet	Ihr würdet
Sie hatten	Sie hätten	Sie waren	Sie wären	Sie wurden	Sie würden

Imperfekt Konjunktiv real bo'lmagan shart gaplarga hozirgi –kelasi zamonda ma'nosida qo'llaniladi:

Hätte ich freie Zeit, ginge ich ins Kino .

Bo'sh vaqtim bo'lganda edi,men kinoga borar edim.

Shuningdek, Imperfekt Konjunktiv bajarilmaydigan orzu –istakni ham anglatadi:

Wenn ich so gut deutsch spräche wie du!

Men nemischani sendek bilganimda edi!

O, wäre mein Vater am Leben!

O, otam tirik bo'lsa edi!

Qo'shma fe'l shakllari, ya'ni Perfekt, Plusquamperfekt, Futurum Konjunktiv aniqlik mayli kabi yasalib, faqat *haben, sein, werden* yordamchi fe'llari Konjunktivda bo'ladi.

§ 73. Perfekt Konjunktivning yasalishi va qo'llanilishi .

Perfekt Konjunktiv shakli haben yoki sein yordamchi fe'lining Presens Konjunktiv va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi. Masalan : Ich habe gelesen, du habest gelesen, er hat gelesen.

Fe'llarning Perfekt Indikativ va Perfekt Konjunktivda tuslanishi

Haben bilan tuslanadigan fe'llar		Sein bilan tuslanadigan fe'llar	
Ich	Ich	Ich	Ich
Du	Du	Du	Du
Er	Er	Er	Er
Wir gefragt	Wir gefragt	Wir gefragt	Wir gefragt
Ihr	Ihr	Ihr	Ihr
Sie	Sie	sie	Sie

Perfekt konjunktiv asosan o'zlashtirma gaplarda qo'llanadi.

Er sagt, daß er dieses Buch schon gelesen .(u, men bu kitobni allaqachon o'qiganman, dedi.)

§ 74. Plusquamperfekt Konjunktivning yasalishi va qo'llanilishi .

Plusquamperfekt Konjunktiv shakli haben yoki sein yordamchi fe'lining Imperfekt Konjunktiv va asosiy fe'ning Partizip II shaklidan yasaladi,masalan: Ich hätte gelesen, du hättest gelesen, Ich wäre gefahren, du wärest gefahren.

Fe'llarning Plusquamperfekt Indikativ va Plusquamperfekt Konjunktivda tuslanishining qiyosiy jadvali.

Indikativ	Konjunktiv	Indikativ	Konjunktiv
Haben bilan tuslanadigan fe'l		Sein bilan tuslanadigan fe'l	
Ich	Ich	Ich	Ich
Du	Du	Du	Du

Er	Er	Er	Er
Wir	Wir	Wir	Wir
Ihr	Ihr	Ihr	Ihr
Sie	Sie	Sie	sie

Plusquamperfekt Konjunktivning qo'llanishi Imperfekt Konjunktivdagidek bo'lib, u ish –harakatning o'tgan zamonda bo'lganligini bildiradi:

Hätte ich davon gestern gehört!

U to'g'risida kecha eshitganimda edi!

§75. Futurum Konjunktiv ning yasalishi va qo'llanishi.

Futurum Konjunktiv shakli werden yordamchi fe'lining Präsens Konjunktiv va asosiy fe'ning Infinitiv shaklidan yasaladi.

Fe'ning Futurum Indikativ va Futurum Konjunktivda tuslanishining qiyosiy jadvali.

Futurum	
Indikativ	Konjunktiv
Ich werde fragen	Ich werde fragen
Du wirst fragen	Du wirst fragen
Er wird fragen	Er wird fragen
Wir werden fragen	Wir werden fragen
Ihr werdet fragen	Ihr werdet fragen
Sie werden fragen	Sie werden fragen

Futurum Konjunktivda asosan o'zlashtirma gaplarda qo'llanadi:

Er sagt, er werde seinen Urlaub in Samarkand verbringen.

U ta'tilini Samarqanda o'tkazishini aytdi.

§76. Konditionalis I. werden yordamchi fe'lining Imperfekt Konjunktiv (würde) va asosiy fe'ning Infinitividan yasaladi:

Ich würde	Wir würden
Du würdest	Ihr würdet
Er würde	Sie würden

Konditionalis ko'pincha bosh gapdagi Imperfekt Konjunktiv o'rnida qo'llanadi:

Ich würde Englisch studieren, wenn ich mehr Zeit hätte.

Agar vaqtim ko'p bo'lganda, men ingliz tilini o'rganar edim.

VII . RAVISH (DAS ADVERB)

Nemis tilida ravish, o'zbek tilidagi kabi ish-harakatning belgisini, paytini, o'rnini yoki holatini bildiradi. Ravish odatda gapda hol bo'lib keladi, masalan:

Die Schuler laufen *schnell*.

O'quvchilar *tez* chopiyaptilar.

Morgen gehen wir in die Schule.

Ertaga biz maktabga boramiz.

§ 77. Ravishlarning turlari (Arten der Adverbien)

Ravishlar anglatgan ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: payt ravishi, o'rin ravishi, holat ravishi va sabab ravishi.

§ 78. Payt ravishi (Das Adverb der Zeit)

Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, wann? (qachon?), wie lange? (qancha vaqt?), seit wann? (qachondan beri?), bis wann? (qachongacha?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi, masalan:

Heute (wann?) haben wir Deutsch.

Bugun (qachon?) bizda nemis tili (darsi bor).

Seit gestern (seit wann?) ist unser Lehrer krank.

Kechadan beri (qachondan beri?) o'qituvchimiz kasal(dir).

Bis morgen (bis wann?) fahre ich aufs Land.

Men ertagacha (qachongacha?) dalaga boraman.

Payt ravishlarining muhimlari quyidagilar bo'lib, ular wann? (qachon?), wie lange (qancha vaqt?), seit wann? (qachondan beri?), bis wann? (qachongacha?) so'rog'iga javob bo'ladi: dann (keyin), damals (o'sha vaqtda), einmal (bir kuni(vaqtda), heute (bugun), gestern (kecha), morgen (ertaga), morgens (ertalab), abends (kechqurun), jetzt (endi), bald (tezda), früh (erta, barvaqt), spät (kech), lange (uzoq vaqt), tagelang (kun bo'yi), seit (...-dan beri), bis (...-gacha).

§ 79. O'rin ravishi (Das Adverb des Ortes).

O'rin ravishi ish-harakatning o'rnini bildirib, wo? (qayerda?), woher? (qayerdan?), wohin?(qayerga?), so'roqlariga javob bo'ladi, masalan:

Dort (wo?) sitzen zwei Schüler.

U yerda (qayerda?) ikki o'quvchi o'tiribdi.

Ich gehe dorthin (wohin?).

Men u yerga (qayerga?) boraman.

O'rin ravishlarining muhimlari quyidagilar bo'lib, ular wo? (qayerda?), wohin? (qayerga?), woher? (qayerdan?) so'roqlariga javob bo'ladi: hier (shu yerda), dort (u yerda), überall (hamma yerda), oben (yuqorida), unten (pastda), links (chapda), darauf (uning ustida), hinten (orqada, orqasida), vorn (oldida), dorthin (u yerga), hinauf (yuqoriga), hinunter (pastga), vorwärts (olg'a), dorthin (u yerdan), davon (u yerdan).

§ 80. Holat ravishi (Das Adverb der Art und Weise).

Holat ravishi ish-harakatning qanday bajarilishini bildirib, wie? (qanday?) va auf welche Weise? (qay tarzda?) so'roqlariga javob bo'ladi, masalan:

Er antwortet immer *gut* (wie?).

U hamma vaqt *yaxshi* (qanday?) javob beradi.

Das Flugzeug fliegt *schnell* (wie?).

Samolyot *tez* (qanday?) uchadi.

Holat ravishlarining muhimlari quyidagilar bo'lib, ular wie? (qanday?) so'rog'iga javob bo'ladi:

gern (ko'ngilli), schnell (tez), langsam (sekin), viel (ko'p), sehr (juda), zusammen (birga), gewöhnlich (odatda).

§ 81. Sabab ravishi (Das Adverb des Grundes).

Sabab ravishi ish-harakatning sababini bildirib, warum? (nima uchun?), wozu? (nima sababdan?) kabi savollarga javob bo'ladi:

darum, deshalb, deswegen, dazu, (shuning uchun, shu sababli) meinetwegen (mening uchun), deinetwegen (sening uchun).

Deinetwegen (warum?) bin ich zu Hause geblieben.

Sening uchun (nima uchun?) men uyda qoldim.

§ 82. Ravishlarning darajalari

(Die Steigerungsstufen der Adverbien)

Ayrim ravishlar, sifatlar kabi darajaga ega bo'lib, ish-harakat belgisining ortiq yoki kamligini bildiradi.

Oddiy daraja (Positiv)	Qiyosiy daraja (Komparativ)	Orttirma daraja (Superlativ)
Schnell (tez),	schneller (tezroq)	am schnellsten (juda tez)
Kalt (sovuq)	kalter (sovuqroq)	am kaltesten (juda sovuq)
Schon (chiroyli)	schöner (chiroyliroq)	am schönsten (juda chiroyli)

Quyidagi ravishlarning qiyosiy darajalari boshqacha yasaladi:

Positiv	Komparativ	Superlativ
Bald (tez)	eher (tezroq)	am ehesten (hammadan oldin)
Gut (yaxshi)	besser (yaxshiroq)	am besten (eng yaxshi)
Viel (ko'p)	mehr (ko'proq)	am meisten (hammadan ko'p)

VIII. PREDLOG (DIE PRÄPOSITION)

Nemis tilida, rus tilidagi kabi predloglar bo'lib, ular gapda otning boshqa gap bo'laklariga munosabatini ko'rsatadi.

Nemis tilida predloglar otlarning oldida kelib, otning ma'lum kelishikda bo'lishini talab qiladi:

Die Kinder gehen *durch* den Wald (Akkusativ kelishigida).

Bolalar o'rmon orqali boradi.

Ich schreibe *mit* dem Bleistift (Dativ kelishigida).

Men qalam bilan yozaman.

Während der Ferien war ich in Fergana (Genitiv kelishigida).

Men kanikulda (kanikul vaqtida) Farg'onada bo'ldim.

Predloglar qaysi kelishikni boshqarishiga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi:

Akkusativni talab qiladigan predloglar.

Dativni talab qiladigan predloglar.

Genetivni talab qiladigan predloglar.

Akkusativ va Dativni talab qiladigan predloglar.

Bu predloglar o'zbek tiliga ko'makchi so'zlar yoki kelishik qo'shimchalari orqali tarjima qilinadi.

§ 83. Akkusativ kelishigini talab qiladigan predloglar.

durch (orqali), *für* (uchun), *ohne* (...-siz), *um* (atrofida), *gegen* (...ga qarshi) predloglardan keyin kelgan ot doim Akkusativ kelishigida bo'ladi:

Wir fahren *durch* die Navoistraße.

Biz Navoiy ko'chasi orqali boramiz.

Wir kämpfen *gegen* den Krieg.

Biz urushga qarshi kurashamiz.

Wir kämpfen *für* den Frieden.

Biz tinchlik uchun kurashamiz.

Ich gehe heute *ohne* Mantel.

Men bugun paltosiz boraman.

Um das Haus wachsen große Baume.

Uy atrofida kata daraxtlar o'sadi.

§ 84. Dativ kelishigini talab qiladigan predloglar.

Mit (bilan), *nach* (keyin), *aus* (-dan), *zu* (-ga, uchun), *von* (-dan, to'g'risida), *bei* (qoshida, yonida) predloglaridan keyin kelgan otlar doim Dativ kelishigida bo'ladi:

Karim schreibt heute *mit* einem Bleistift.

Karim bugün qalam bilan yozadi.

Nach der Stunde gehe ich in die Bibliothek.

Men darsdan keyin kutubxonaga boraman.

Ich habe einem Brief *von* meinem Freund bekommen.

Men o'rtog'imdan xat oldim.

Diese Schuler kommen *aus* der Schule.

Bu o'quvchilar maktabdan kelayotir(lar).

Am Sonntag kommen sie *zu* uns.

Yakshanba kuni ular biznikiga keladi.

Genosse Komilow wohnt *bei* seinem Onkel.

O'rtoq Komilov amakisirikida yashaydi.

§ 85. Genetiv kelishigini talab qiladigan predloglar.

Quyidagi predloglar Genetiv kelishigini talab qiladi:

unweit (yaqinida), *statt* (o'rniga), *während* (vaqtida, davomida), *diesseits* (bu tarafida), *jenseits* (u tarafida), *innerhalb* (ichida), *langs*— (yoqalab), *trotz*— (...-ga qaramasdan), *außerhalb*— (...-dan tashqari).

Unweit der Schule gibt es einen Garten.

Maktab yaqinida bog' bor.

Statt des Mantels kaufte ich einen Anzug.

Men palto o'rniga kastyum sotib oldim.

Während der Ferien fahre ich in den Garten.

Men kanikul vaqtida boqqa boraman.

Wir fahren *langs* der Karl-Marx-Straße.

Biz Karl Marks ko'chasidan bordik.

Jenseits des Waldes befindet sich ein Lager.

O'rmonning u tarafida Lager bor.

Trotz der Hitze gingen wir zu Fuß.

Biz issiq bo'lishiga qaramay piyoda bordik.

§ 86. Dativ va Akkusativ kelishiklarini talab qiladigan predloglar.

Bu gruppadagi predloglar wo? (qayerda?) so'rog'iga javob bo'lib kelsa, Dativ kelishigini; wohin? (qayerga?) so'rog'iga javob bo'lsa, Akkusativ kelishigini talab qiladi.

wo?	wohin?
An—oldida, ustida,-da	oldiga, ustiga, -ga
Auf—ustida	ustiga
In—ichida, -da	ichiga, -ga
Hinter—orqasida	orqasiga
Vor—oldida	oldiga
Über—ustida (tegmas)dan	ustiga
Unter—tagida	tagiga
Neben—yonida	yoniga
Zwischen—orasida	orasiga

Misollar:

Der Schuler geht *in die Schule*. (wohin? – Akkusativ kelishigida).

O'quvchi maktabga boradi (qayerga? – jo'nalish kelishigida).

Wir lernen *in der Schule*. (wo? – Dativ kelishigida)

Biz maktabda o'qiymiz (qayerda? – o'rin kelishigida)

Ich lege das Buch *auf den Tisch*. (wohin? – Akkusativ kelishigida).

Men kitobni stol ustiga qo'yaman (qayerga? – jo'nalish kelishigida)

Das Buch liegt *auf dem Tisch* (wo? – Dativ kelishigida).

Kitob stol ustida yotibdi (qayerda? – o'rin kelishigida).

Der Vater hängt die Lampe *über den Tisch* (wohin? – Akkusativ kelishigida)

Otam lampani stol ustiga osadi (qayerga? – jo'nalish kelishigida).

Die Lampe hängt *über dem Tisch*. (wo? – Dativ kelishigida).

Lampa stol ustida osilib turlpti (qayerda? – o'rin kelishigida).

In, an, auf kabi predloglar wo? so'rog'iga javob bo'lganda, o'zbek tiliga o'rin kelishigidagi so'z bilan; wohin? so'rog'iga javob bo'lganda esa jo'nalish kelishigidagi so'z orqali beriladi.

§ 87. Predloglarning artikl bilan birikishi.

Akkusativ va Dativ kelishiklarini talab qiladigan ba'zi predloglar aniq artikl bilan birikadi:

Akkusativ	Dativ
An+das o'rniga ans	in+dem o'rniga im
Auf+das ,, aufs	an+dem ,, am
In+das ,, ins	bei+dem ,, beim
Vor+das ,, vors	zu+dem ,, zum
	Zu+der ,, zur

Misollar:

Ich gehe *in das* Kino yoki *ins* Kino.

Wir sitzen *in dem* Zimmer yoki *im* Zimmer.

Der Kranke geht *zu dem* Arzt yoki *zum* Arzt.

Ich gehe *zu der* Schwester yoki *zur* Schwester.

Übungen zum Thema "Die Präposition"

Übung 1. Stellen Sie die entsprechenden Präpositionen.

1. Der Schnee Leopard lebt
2. Er spricht
3. ... der Stunde geht er
4. Ich fahre
5. Sie kommt
6. Karim wohnt

Übung 2. Setzen Sie statt der Punkte die eingeklammerten

Verben in Imperfekt Passiv ein.

- a) stellen, stehen;

1. Der Kleiderschrank ... rechts an der Wand. 2. Ich ... den Tisch in die Mitte des Zimmers. 3. Er ... eine Frage. 4. Lola ... an der Tafel.

b) setzen, sitzen;

2. Die Erzieherin ... das Kind auf das Sofa. 2. Der Student ... am Tisch und macht seine Aufgabe. 3. Die Gäste ... an dem Tisch. 4. Die Mutter ... ihre Tochter neben den Vater.

Übung 3. Beantworten Sie die Fragen.

1. Wohin legt Ra`no die Bücher? Wo liegen die Bücher? 2. Wohin hängt der Lehrer die Landkarte? Wo hängt die Landkarte? 3. Wohin gehen sie? Wo studieren Sie? 4. Wohin stellen sie das Bett? Wo steht das Bett?

Übung 4. Setzen Sie die eingeklammerten Wörter im

Akkusativ ein.

Ich gehe durch (der Wald). 2. Dono übersetzt (der Text) ohne Wörterbuch. 3. Das Warenhaus befindet sich um (die Ecke). 4. Die Völker kämpfen für (der Frieden). 5. Die Kinder singen (das Lied) um (der Tannenbaum).

Übung 5. Setzen Sie statt der Punkte die entsprechenden

Präpositionen ein.

1. Wir übersetzen den Text ... Wörterbuch. 2. Er kämpft ... den Krieg. 3. Die Gästesitzen ... den Tisch. 4. Sie bleiben im Institut ... spät Abend. 5. Ich trinke Tee ... Zucker. 6. Sie wohnt ... ihrem Bruder. 7. ... Lola sind alle da. 8. Er fährt ... Bahnhof.

Übung 6. Bilden Sie die Sätze mit den Präpositionen.

1. mit -

2. nach -

3. aus -

4. zu -

5. von -

6. bei -
7. seit -
8. außer -
9. entgegen -
10. gegenüber -
11. für -
12. ohne -
13. gegen -
14. um -
15. in, an, auf, unter, über, vor, zwischen, neben, hinter
16. unweit -
17. während -
18. (an) statt -
19. wegen -
20. trotz –

Teste zum Thema “Die Präposition”

1. Setzen Sie die Präpositionen ein.

Das Schwimmbad befindet sich weit, ich fahre ... der U -Bahn.

- A) nach
- B) mit
- C) in
- D) an

2. Finden Sie die Antwort aus die Frage.

Wohin muss ich das Auto stellen?

- A) An dem Fenster
- B) Hinter das Haus
- C) Hinter dem Haus
- D) Um zehn Uhr

3. Setzen Sie die Präpositionen ein.

Ich muss ... Morgen ins Institut ... dem Bus fahren.

- A) an/die
- B) am/mit
- C) mit/am
- D) zu/in

4. Setzen Sie die Präpositionen ein.

Ich spreche ... dem Lehrer.

- A) aus
- B) zu
- C) mit
- D) nach

5. Setzen Sie die Präpositionen ein.

Der Lehrer erzählt ... der Reise.

- A) zu
- B) von
- C) über
- D) mit

6. Setzen Sie die Präpositionen ein.

... gestern ist das Wetter schön.

- A) aus
- B) seit
- C) von
- D) zu

7. Setzen Sie die Präposition ein.

... deine Hilfe kann ich dieses Fach nicht verstehen.

- A) bis
- B) mit
- C) ohne
- D) aus

8. Finden Sie die Antwort auf die Frage.

Wo befindet sich der Park?

- A) neben den Hof.
- B) hinter dem Haus.
- C) hinter dem Tür
- D) zum Dorf

9. Ergänzen Sie die Satz.

... Tisch hängen wir eine Lampe.

- A) Über dem
- B) In dem
- C) Über den
- D) Vor das

10. Setzen Sie die Präpositionen ein.

... unseres Urlaubs haben wir viel Interessantes gesehen.

- A) Nach
- B) Über
- C) Während
- D) Trotz

IX. BOG'LOVCHI (DIE KONJUNKTION).

Gap bo'laklari yoki gaplarni bir-biri bilan bog'laydigan so'z turkumi bog'lovchi deb ataladi.

Bog'lovchilar gap bo'laklari yoki gaplarni biriktirish xususiyatlariga ko'ra ikki xil bo'ladi:

I.Teng bog'lovchilar (Die beiordnenden Konjunktionen).

und (va), *aber* (lekin), *oder* (yoki), *denn* (chunki), *doch* (biroq), *auch* (ham), *also* (shunday qilib), *entweder ... oder* (yo...yo), *weder... noch* (na...na), *bald...bald* (goh...goh) va boshqalar.

Misollar:

Mein Freund arbeitet *und* lernt im Institut.

Mening do'stim ishlaydi va institutda o'qiydi.

Gehst du ins Kino *oder* bleibst du zu Hause?

Sen kinoga borasanmi yoki uyda qolasanmi?

Wir gehen *entweder* ins Museum *oder* wir bleiben in der Schule.

Biz yo muzeyga boramiz yo maktabda qolamiz.

Dieser Schuler ist noch jung, *aber* er spielt gut Schach.

Bu o'quvchi hali yosh, lekin shaxmatni yaxshi o'ynaydi.

Darum (shuning uchun), außerdem (...dan boshqa), dann (keyin), deswegen (shuning uchun) kabi ravishlar bog'lovchi vazifasida kelib, gapdagi so'z tartibiga ta'sir qiladi; bu so'zlardan keyin hamma vaqt kesim keladi, masalan:

Unser Lehrer ist krank, *darum* kommt er nicht.

Bizning o'qituvchi kasal, *shuning uchun* u kelmaydi.

Ich mache zuerst meine Aufgaben, *dann* gehe ich in die Schule.

Men avval uy vazifalarimni bajaraman, *so'ngra* maktabga boraman.

2.Ergashtiruvchi bog'lovchilar (die unterordnenden Konjunktionen).

daß (-ki), *weil* (chunki), *damit* (chunki), *wenn* (agar), *als* (-da), *bis* (-gacha), *nachdem* (-dan keyin), kabi bog'lovchilar ergash gap bilan bosh gapni bog'laydi.

Bular so'z tartibiga ta'sir qiladi:

Wir wissen , *daß* er morgen nicht kommt.

Biz bilamizki, u ertaga kelmaydi.

Der Lehrer lobte Genossin Komilowa , *weil* sie heute gut antwortete.

O'qituvchi o'rtoq Komilovani maqtadi, chunki u bugun yaxshi javob berdi.

Als ich klein war, besuchte ich den Kindergarten.

Men yoshligimda bolalar bog'chasiga borar edim.

Nachdem mein Bruder die Schule absoviert hatte, bezog er die Universität.

Akam maktabni bitirgandan keyin universitetga kirdi.

X. UNDOV SO'ZLAR (DIE INTERJEKTION).

His-hayajonni, sharpani bildirgan so'zlar undov so'zlar deb ataladi, masalan:

Ach! O weh! Oho! Hurra! Ei! Pfui!

Undov so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmay, gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi, masalan:

Ach, Karl fehlt doch!

Oh, Karl yo'q-ku!

O, mein Lieber, Sie sind gekommen!

O, do'stim, kelibsiz-ku!

SINTAKSIS (DIE SYNTAX)

Sintaksis gapda so'zlar birikishini va gap turlarini o'rgatadi.

§ 88. Gap haqida ma'lumot.

So'zlar vositasi bilan anglatilgan fikr gap deb ataladi, masalan:

Wir lernen in der Schule.

Biz maktabda o'qiymiz.

Er ist Student.

U student.

Nemis tilida gapda so'zlar bir-biri bilan ma'lum grammatik qoida asosida birikib, o'zbek tilidan ancha farq qiladi.

§ 89. Gapping ma'no jihatidan turlari.

Nemis tilida gaplar ma'no jihatidan, o'zbek tilidagidek, uch turga bo'linadi: darak gap, so'roq gap, undov gap.

Darak gap (Der Aussagesatz)

Xabar yoki hikoya ma'nosini bildirgan gaplar darak gap deyiladi, masalan:

Wir schreiben heute eine Kontrollarbeit.

Biz bugun nazorat ishi yozamiz.

Sein Vater arbeitet in der Fabrik.

Uning otasi fabrikada yashaydi.

So'roq gap (Der Fragesatz).

So'roq ma'nosini bildirgan gaplar so'roq gap deb ataladi. Nemis tilida so'roq gaplar, o'zbek tilidagi kabi, so'roq so'zli yoki so'roq so'zsiz bo'lib, ular bir-biridan yasalish jihatidan farq qiladi, masalan:

Wo lernt dein Bruder?

Sening akang *qayerda* o'qiydi?

Wann kommst du zu uns?

Sen biznikiga qachon kelasan?

Verstehst du gut Deutsch?

Sen nemischi yaxshi tushunasanmi?

Undov gap (Der Befehissatz).

His-hayajon, chaqiriq, iltimos va buyurish ma'nolarini bildirgan gaplar undov gap deb ataladi, masalan:

Gehen Sie nach Hause!

Uyga boringlar!

Bringen Sie bitte Ihr Buch morgen!

Kitobingizni ertaga olib keling!

§ 90. Eganing ifodalanishiga ko'ra gapning turlari.

Eganing ifodalanishiga ko'ra gap uch turga turga bo'linadi: shaxsli gap ,shaxsi noaniq gap va shaxsi topilmas gap.

Shaxsli gap (der persönliche Satz)

Shaxsli gapda ega asosan ot, kishilik, ko'rsatish yoki o'zlik olmoshlari bilan ifodalanadi:

Der Schüler schreibt gut. Er ist fleißig.

O'quvchi yaxshi yozadi. U tirishqoq.

Shaxsi noaniq gap (der unbestimmt-persönliche Satz).

Shaxsi noaniq gapda ega hamma vaqt man noaniq kishilik olmoshi bilan ifodalanadi. Man olmoshi o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Bunday gaplarda o'zbek tilida ega bo'lmay, gapning kesimi III shaxs ko'plikda bo'ladi, masalan :

Man baut in Taschkent söschne Häuser.

Toshkentda chiroyli uylar qurilmoqda.

Shaxsi noaniq gap (der unpersönliche Satz)

Shaxsi noaniq gapda esa noaniq olmoshi ega vazifasida kelib, bu ega o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi, masalan :

Es ist gut.- yaxshi.

Es ist Winter – qish.

Übung 1. Bestimmen Sie die Art der Wortfolge in folgenden Sätzen.

1. Ich wohne weit von der Hochschule. 2. In die Hochschule fahre ich mit dem Bus. 3. Zum Unterricht komme ich immer rechtzeitig. 4. Ich studiere die deutsche Sprache. 5. In der Stunde sprechen wir nur deutsch. 6. Der Lehrer erklärt uns neue Vokabeln. 7. Wir schreiben sie in unsere Vokabelhefte. 8. Nach dem Unterricht arbeiten wir im Sprachlabor. 9. Wir arbeiten viel an unserer Aussprache. 10. Nach Hause komme ich gewöhnlich um 6 Uhr.

Übung 2. Stellen Sie Fragen zu den fettgedruckten Wörtern.

Muster: Das Studienjahr beginnt im September.

Wann beginnt das Studienjahr?

1. Ihr Bruder studiert an der Universität. 2. Heute Abend gehen wir ins Theater. 3. Das Wetter ist heute schön. 4. Meine Eltern wohnen im Dorf. 5. Der Student wiederholt die Vokabeln. 6. Der Lehrer korrigiert die Fehler. 7. Barno schreibt einen Brief. 8. Ich übersetze den Text. 9. Lola geht ins Kino.

§ 91. Gapning tuzilish jihatidan turlari.

Soda gaplar tuzilish jihatidan uch turga bo'linadi:

Yig'iq sodda gap(Der einfache unerweiterte Satz)

Yoyiq sodda gap(Der einfache erweiterte Satz)

Uyushiq bo'lakli gaplar(Der Satz mit gleichartigen Satzgliedern)

Yig'iq sodda gap

Bosh bo'laklardangina tuzilgan gap yig'iq sodda gap deyiladi. O'zbek tilida yig'iq sodda gapda avval ega ,keyin kesim keladi:

Wir lernen- Biz o'qiyamiz.

Yoyiq sodda gap

Bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklari ham bo'lgan gap yoyiq sodda gap deb ataladi:

Heute schreiben die Schüler ein Diktat.

Bugun o'quvchilar diktant yozadilar.

Uyushiq bo'lakli gaplar

Bir necha bir xil bo'lakli gap uyushiq bo'lakli gap deyiladi:

Die Schüler und Lehrer gehen in die Schule.

O'qituvchi va o'quvchilar maktabga boradilar.

BOSH BO'LAKLAR(DIE HAUPTGLIEDER DES SATZES)

§ 92.Ega va uning ifodalanishi.

Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirib wer? was?so'rog'iga javob bo'lgan bo'lagi ega (das Subjekt) deyiladi:

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) Bosh kelishikdagi ot bilan:

Das Schuljahr hat begonnen.

O'quv yili boshlandi.

2) Bosh kelishikdagi olmosh bilan:

Wir lieben unsere Heimat.

Biz vatanimizni sevamiz.

3) Otlashgan sifat, sifatdosh, infinitiv bilan:

Der Kranke geht zum Arzt.(otlashgan sifat)

Kasal doktorga boradi.

Dieser Gelehrte arbeitet viel .(otlashagn sifatdosh)

Bu olim ko'p ishlaydi.

4) Turli so'z turkumlari bilan:

Rot ist meine Lieblingsfarbe .(sifat)

Qizil -- men sevadigan rang

Zwei ist eine gerade Zahl (son).

Ikki-juft son.

5) Man noaniq kishilik olmoshi bilan:

Man baut in unserer Schule eine Speisehalle.

Bining maktabimizda oshxona qurilmoqda.

6) Es shaxssiz olmoshi bilan:

Es ist kalt-sovuq.

Es regnet im Herbst oft.

Kuzda yomg'ir tez -tez yog'ib turadi.

§93. Kesim (Das Prädikat)

Kesim eganing holatini ,harakatini ,qandayligini ,kim yoki nima ekanligini anglatadi. Kesim was tut das Subjekt? (Nima qiladi?),wie ist das Subjekt (qandaydir?),wer, was ist ds Subjekt(kimdir ?nimadir?) so'roqlriga javob bo'ladi:

Die Sportler turnen jeden Tag . Was tun die Sportler ? Sie turnen.

Sportchi har kuni sport bilan shug'ullanadi

§ 94.Kesimning turlari(Arten des Prädikates)

Nemis tilida kesim, o'zbek tilidagi kabi, ikki turli bo'ladi: fe'l kesim va ot kesim.

1) Shaxs bildirgan fe'l bilan ifodalangan kesim fe'l kesim deb ataladi, masalan:

Wir lernen in der Schule.

Biz maktabda o'qiyamiz.

Fe'l kesim sodda yoki qo'shma bo'ladi:

Shaxs bildirgan bir fe'l bilan ifodalangan kesim sodda fe'l kesim (das einfache verbale Prädikat) deyiladi , masalan:

Der Student schreibt – Talaba yozyapti.

Ikki fe'l bilan ifodalangan kesim qo'shma fe'l kesim (das zusammengesetzte verbale Prädikat) deyiladi,masalan :

Er kann deutsch sprechen.

U nemischa gaplasha oladi.

2)Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan kesim qo'shma ot kesim (das nominale Prädikat) deb ataladi. Qo'shma ot kesim bog'lama (die Kopula) va kesimning ot qismi (das Prädikativ) dan iborat bo'ladi.

Ot kesim odatda *sein* bog'lamasi bilan yasaladi, werden, bleiben, heißen bog'lamalari kamroq qo'llanadi. Ot kesimda bog'lama shaxs, son, zamon va maylni ko'rsatib, ot kesimning o'zgaradigan qismi deyiladi,masalan:

Der Schüler ist fleißig. - o'quvchi tirishqoqdir.

§ 95.Ega bilan kesimning moslashuvi .

(Kongruenz zwischen Subjekt und Prädikat)

Ega va kesim gapda shaxs va son jihatidan moslashadi,masalan:

Ich lese gut.- Men yaxshi o'qiyman.

Wir lesen gut. –Biz yaxshi o'qiymiz.

Agar kesim qo'shma gap bo'lsa, u holda faqat kesimning o'zgaradigan qismi ega bilan moslashadi,masalan:

Der Tisch ist groß. –Stol kata.

Die Tische sind groß . – Stollar kata.

§96 .Gapning ikkinchi darajali bo'laklari .

(Die Nebenglieder des Satzes).

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari uch xildir: to'ldiruvchi ,aniqlovchi, hol.

§ 97.To'ldiruvchi . (Das Objekt).

To'ldiruvchi gapning II darajali bo'lagi bo'lib, kesimning ma'nosini to'ldiradi.

To'ldiruvchilar uch xil bo'ladi:

Vositasiz to'ldiruvchi (Das Akkusativobjekt)

Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi(Das Dativobjekt)

Predlogli to'ldiruvchi (Das präpositionale Objekt)

§ 98. Vositasiz to'ldiruvchi.(Das Akkusativobjekt)

Tushum kelishigidagi so'z orqali ifdalangan to'ldiruvchilar vositasiz to'ldiruvchi deb ataladi.

Nemis tilida vositasiz to'ldiruvchi, o'zbek tilidagi kabi, o'timli fe'llarga bog'lanib, tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. Vositasiz to'ldiruvchi wen? (kimni?), was? (nimani?) so'rog'iga javob bo'ladi. Ba'zan vositasiz to'ldiruvchi zu yuklamali Infinitiv bilan ham ifodalanadi:

Der Lehrer, ruft den Schüler an die Tafel. Wen ruft der Lehrer?

O'qituvchi o'quvchini doskaga chiqardi.

§ 99. Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi

(Das Dativ objekt)

Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi Dativobjekt deyiladi.

Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi wem? (kimga? Nimaga?) so'rog'iga javob bo'ladi, masalan:

Die Schüler antworten dem Lehrer. wem antworten die Schüler?

O'quvchilar o'qituvchiga javob berdi.

§100. Predlogli to'ldiruvchi

(Das präpositionale Objekt)

Predlogli to'ldiruvchilar predlogli ot orqali ifodalanadi.

Nemis tilidagi predlogli to'ldiruvchi odatda o'zbek tilidagi vositali to'ldiruvchiga to'g'ri keladi:

Fatima schreibt einen Brief an ihre Mutter. Wem schreibt Fatima?

Fotima onasiga xat yozadi.

Infinitiv bilan ifodalangan to'ldiruvchi.

To'ldiruvchi ba'zan Infinitiv bilan ham ifodalanadi; bu holda Infinitiv oldida *zu* yuklamasi bo'ladi:

Der Schuler versprach dem Lehrer gut zu lernen.

O'quvchi o'qituvchiga yaxshi oqishga va'da berdi.

§101 .Aniqlovchi (Das Attribut).

Aniqlovchi predmetning belgisini aniqlab, wessen? (kimning? Nimaning?) so'roqlariga javob bo'ladi, masalan:

Das Buch des Schülers. (o'quvchining kitobi). Wessen Buch?

Nemis tilida aniqlovchi qo'llanishi va ifodalanishi jihatidan o'zbek tilidagidan ancha farq qiladi.

§102. Aniqlovchining ifodalanishi.

Aniqlovchi asosan quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1)Sifat yoki sifatdosh bilan:

Die schwere(welche?) Aufgabe - og'ir vazifa

Das kalte(welches?) Wasser –sovuq suv

2)Olmosh bilan:

Mein Vater (wessen Vater?) ist alt –mening otam kekxa.

Unsere Heimat (wessen Heimat?) ist Freiden - Bizning vatan tinch.

3) Son bilan:

Zwanzig (wielviel?) Schüler sitzen in der Klasse –Sinfda 20 ta o'quvchi o'tiribdi.

4)Qaratqich kelishigidagi ot bilan:

Das Gebäude des Instituts (wessen Gebäude?) ist neu –Institutning binosi yangi.

5)Ravish bilan:

Der Garten rechts (welcher ? ist groß – o'ng tarafdagi bog' katta.

§ 103. Yoyiq aniqlovchi

(Das erweiterte Attribut).

Agar sifatdosh yoki sifat aniqlovchi o'ziga qarashli so'zlar bilan biron otni aniqlab kelsa, yoyiq aniqlovchi deyiladi.

Nemis tilida yoyiq aniqlovchi artikl (yoki olmosh) bilan aniqlanmish otning o'rtasida keladi.

§104. Hol. (Das Adverbiale).

Hol ish –harakatning qay tarzda bajarilishini, sababini, maqsadini yoki uning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'rin yoki paytni bildiradigan gap bo'lagidir.

Nemis tilida hol 8 turga bo'linib, ularning eng muhimlari quyidagilar:

- 1) Payt holi (Das Adverbiale der Zeit).
- 2) O'rin holi (Das Adverbiale des Ortes)
- 3) Ravish holi (Das Adverbiale der Art und Weise)
- 4) Sabab va maqsad holi (Das Adverbiale des Grundes und Zieles)

§105. Payt holi (Das Adverbiale der Zeit)

Payt holi ish harakatning yoki holatning paytini bildirib, wann (qachon?), seit wann (qachondan beri?), bis wann (qachongacha ?) wie lange? (qay vaqt?) kabi javob bo'ladi.

Payt holi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi.

Payt ravishi bilan:

Jetzt bin ich frei.

Hozir men bo'shman.

Predlogli ot yoki olmosh bilan:

Nach der Stunde gehe ich ins Kino.

Darsdan keyin men kinoga boraman.

§106. O'rin holi. (Das Adverbiale des Ortes)

Ish –harakat yoki holatning o'rnini bildirgan hol, o'rin holi deyiladi.

O'rin holi wo? (qayerda?), wohin? (qayerga?), woher? (qayerdan?) so'roqlarig javob bo'ladi.

Er arbeitet hier. (wo?) – u shu yerda ishlaydi.

Ich gehe heute ins Kino. (wohin?) - men bugun kinoga boraman.

O'rin holi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) O'rin ravishi bilan:

Dort steht ein Mann . (wo?) – U yerda bir kishi turibdi.

2)Predlogli ot bilan:

Kommen Sie an die Tafel!(wohin?) – Doskaga chiqing.

§107. Ravish holi

(Das Adverbiale der Art und Weise)

Ravish holi ish –harakat yoki holatning qay tarzda bajarilishni bildirib, wie (qanday?) , auf welche Weise?(qanday qilib?) kabi so'roqlariga javob bo'ladi.

Ravish holi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1)Ravish bilan:

Wir lernen gut.(wie?)

Biz yaxshi o'qiyamiz.

2)Sifatdosh bilan:

Die Kinder spielen lachend .(wie?)

Bolalar kulib o'ynamoqda.

3)Predlogli ot bilan:

Wir studieren die englische Sprache mit Interesse.

Biz ingliz tilini xavas bilan o'rganmoqdamiz.

4)Infinitiv bilan:

Ohne viel zu lese, kann man nicht gut schreiben (auf welche Weise?)

Ko'p o'qimasam, yaxshi yozish mumkin emas.

§ 108. Sabab va maqsad holi

(Das Adverbiale des Grundes und Zieles)

Sabab va maqsad holi ish –harakatning bajarilish sababi yoki maqsadini anglatib, warum (nega?), aus welchem Grunde?(nim sababdan?) , wozu?(nima uchun?)kabi so'rog'lariga javob bo'ladi.

Sabab va maqsad holi ko'pincha predlogli ot bilan ifodalanadi:

Das Kind lachte vor Freude .(weshalb?)

Bola xursandchiligidan kuladi.

§109 . Sodda gapda so'z tartibi.

Nemis tilida so'z tartibi katta rol o'ynab ,so'z tartibining o'zgarishi bilan gapning ma'nosi ham o'zgaradi ,masalan:

Er schreibt - u yozadi.(darak gap)

Schreibt er? – u yozadimi?(so'roq gap)

§110. Eganing o'rni .

1. Agar gapda kesimdan oldin (birinchi o'rinda) kelsa bunday gap to'g'ri so'z tartibli gap (die gerade Wortfolge)deyiladi ,masalan:

Wir gehen morgen ins Museum.

Biz ertaga muzeyga boramiz.

2. Agar gap boshida ikkinchi darajali gap bo'laklaridan biri ,ikkinchi o'rinda kesim va undan keyin (uchinchi o'rinda)ega kelsa ,bunday gap teskari so'z tartibli gap (die invertierie Wortfolge)deyiladi,masalan:

1	2	3		
Payt holi	kesim	ega		
Morgen	gehen		wir	ins

Museum.

Yoki

1	2	3		
O'rin holi	kesim	ega	payt holi	
Ins Museum	gehen	wir	morgen.	

1	2	3		
To'ldiruvchi	kesim	ega		hol
Diesen Roman	lese	ich		mit

Vergnügen.

§111. Gapda kesimning o'rni.

O'zbek tilida darak gaplarda kesim gapning oxirida keladi. Nemis tilida esa darak gaplarda kesim hamma vaqt gapning ikkinchi o'rnida keladi.

Ich lerne in der Schule.

Men maktabda o'qiyman.

Agar qo'shma kesim ikki yoki uch qismdan iborat bo'lsa, uning o'zgaradigan qismi ikkinchi o'rinda, o'zgarmaydigan qismi hamma vaqt gapning oxirida keladi.

Eslatma .1) Kesimning o'zgaradigan qismi asosan haben, sein, werden yordamchi fe'llari, shuningdek, sollen, können, wollen kabi modal fe'llardir.

Kesimning o'zgarilmaydigan qismi Partizip II, Infinitiv va ot kesimning ot qismi (Prädikativ)dir, masalan:

Er ist ins Kino gegangen.

U kinoga ketdi.

Er hat ein Buch gekauft.

U kitob sotib oldi.

Agar fe'l kesim ajraladigan old qo'shimchali fe'l bilan ifodalansa,old qo'shimcha Präsens ,imperfektiv va Imperativda fe'ldan ajralib ,gap oxirida keladi ,masalan:

Er steht um sieben Uhr auf.

U soat 7 da turadi.

Er stand um sieben Uhr auf.

U soat 7 da turdi.

§112. So'roq gapda kesimning o'rni .

So'roq so'zli so'roq gaplarda kesim,darak gapdagidek,ikkinchi o'rinda turadi,masalan:

1 2

Was schreibst du?

Sen nima yozyapsan?

So'roq so'zsiz so'roq gaplarda kesim yoki uning o'zgaradigan qismi gapning boshida keladi, masalan:

Kommst du heute zu mir?

Sen bugün menikiga kelasanmi?

§113. Gapda to'ldiruvchi va holning o'rni.

Nemis tilida darak gaplarda to'ldiruvchi va hol gapda ikkinchi o'rinda boshqa turli o'rinlarda kela oladi:

Ich kann deinen Vorschlag nicht annehmen.

Men sening taklifingni qabul qila olmayman.

Deinen Vorschlag kann ich nicht annehmen.

Agar gapda bir necha hol bo'lsa, payt holi, o'zbek tilidagi kabi, o'rin holidan oldin keladi, masalan:

wir gehen heute ind Theater.

Biz teatrqa boramiz.

Agar gapda bir necha to'ldiruvchi bo'lsa, jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi tushum kelishigidagi to'ldiruvhidan oldin keladi, masalan:

Der Vater kaufte dem Sohn einen Ball.

Ota o'g'liga koptok sotib oldi.

§114. Gapda nicht va keinning o'rni.

Nemis tilida nicht va kein so'zlari eng ko'p qo'llanadigan inkor so'zlardir.

Agar nicht so'zi kesimni inkor etsa, u hamma vaqt fe'llardan keyin keladi. Nicht so'zi ko'pincha yoyiq darak gapning oxirida keladi, masalan:

Er arbeitet nicht.

U ishlamaydi.

Agar kesimning o'zgarmaydigan qismi gap oxirida kelsa, nicht so'zi undan oldin keladi, masalan:

Ich habe dieses Buch nicht gelesen.

Men bu kitobni o'qiganim yo'q.

Ich kann ihn morgen nicht sehen.

Men uni ertaga ko'ra olmayman.

Kein ot bilan ifodalangan gap bo'laklarini inkor etib, u hamma vaqt inkor qilingan otdan oldin keladi:

Er ist kein Student.

U talaba emas.

§115. Gapda aniqlovchining o'ri.

Agar aniqlovchi sifat yoki sifatdosh bilan ifodalansa, artikl va aniqlanmish ot o'rtasida keladi, masalan:

Ich lese eine neue Zeitung.

Men yangi gazeta o'qiyapman.

Agar aniqlovchi ot bilan ifodalansa, odatda aniqlanmishdan keyin keladi, masalan:

QO'SHMA GAP (DER ZUSAMMENGESETZTESATZ).

Ikki va undan ortiq sodda gapdan tuzilgan gaplar qo'shma gap deb ataladi.

Qo'shma gaplar tuzilishi va ma'nosiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1). Bog'langan qo'shma gap.

2) Ergashgan qo'shma gap.

§116. Bog'langan qo'shma gap (Die Satzeihe)

Mazmun jihatidan o'zar bog'langan ikki yoki bir necha mustaqil gapdan tuzilgan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap deyiladi. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro bog'lovchili yoki bog'lovchisiz bog'lanadi, masalan:

Ich kann zu meinen Freund, aber er war nicht zu Hause.

Men o'rtog'imnikiga bordim, ammo u uyida yo'q edi.

Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro und (va), denn (keyin), da (o'sha vaqtda), aber (ammo, biroq, lekin), oder (yoki), darum (shuning uchun), denn

(chunki) kabi yakka bog'lovchilar va baldbald, weder noch, entweder...oder, kabi juft bog'lovchilar orqali bog'lanadi. Bularadn und, aber, oder, denn, kabi bog'lovchilar gapdagi so'z tartibiga ta'sir qilmaydi:

Ich lerne in der Schule, aber mein Bruder lernt im Institut.

Men maktabda o'qiyman, ammo mening akam institutda o'qiydi.

Nemis tilidagi teng bog'lovchilar ikki guruhga bo'linadi:

So'z tartibiga ta'sir qilmaydigan teng bog'lovchilar: und, aber, denn, oder, entweder...oder

So'z tartibiga ta'sir qiladigan teng bog'lovchilar:

Deshalb, darum, deswegen,so, dann, dennoch, bald...bald, weder...noch va boshqalar.

So'z tartibiga ta'sir qiladigan teng bog'lovchilaradn keyin hamma vaqat kesim, undan keyin esa ega keladi. (teskari so'z tartibi):

In einigen Tagen haben wir Prüfungen in der Muttersprache, deshalb müssen wir die Grammatik wiederholen.

Bir necha kundan keyin ona tilidan imtixon bo'ladi, shuning uchun biz grammatikani takrorlashimiz kerak.

§117.Ergashgan qo'shma gap. (Das Satzgefüge)

Biri ikkinchisiga ergashib, o'sha gapni yo uning biror bo'lagini izohlab kelgan gaplar ergashgan qo'shma gap deb ataladi.

Ergashgan qo'shma gap bosh gap (der Hauptsatz) va ergash gap (der Nebensatz) dan iborat bo'ladi.

Ergash gap bosh gapga ergashib, uning biror bo'lagini izohlab keladi.

§118.Ergash gapning o'rni (Die Stellung des Nebensatzes).

Nemis tilida ergash gap bosh gapdan oldin, keyin yoki bosh gapning o'rtasidan kela oladi:

Da er krank ist, kommt er zu uns nicht.

U kasal bo'lganligi uchun, biznikiga kelmaydi.

Das Buch, das du mir gegeben hast,ist interessant.

Sen menga bergan kitob qiziq.

Er sagt,daß er heute zu uns kommt.

U bugun biznikiga kelishini aytdi.

§119.Ergash gaplarda so'z tartibi

(Der Wortfolge im Nebensatz).

Nemis tilida bog'lovchili ergash gaplarda kesim hamma vaqt gapning oxirida bo'ladi; agar kesim ikki yoki uch qismdan iborat bo'lsa,uning o'zgaradigan qismi gapning oxirida ,o'zgarmaydigan qismi esa undan oldin keladi:

Ich denke, daß du gut lernen kannst.

Bog'lovchisiz ergash gaplar (Die konjunktionslosen Nebensätze)

Ba'zi ergash gaplar bosh gap bilan bog'lovchisiz bog'lanishi mumkin. Bunday holda gapdagi so'z tartibi turlicha bo'ladi; ammo kesim gapning oxirida kelmaydi.

Bog'lovchili gap

Ich weiß, da er fleißig ist.

bog'lovchisiz gap

Ich weiß, er ist fleißig.

§120. Ergash gaplarning turlari. (Arten der Nebensätze)

Ergash gaplar bosh gapning qaysi bo'lagini izohlab kelishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ega ergash gap (Der Subjektsatz).
2. Kesim ergash gap (Der Prädikativsatz).
3. To'ldiruvchi ergash gap (Der Objektsatz).
4. Aniqlovchi ergash gap (Der Attributsatz).
5. Hol ergash gap (Adverbialsätze).

§121. Ega ergash gap (Der Subjektsatz).

Ega ergash gap bosh gapning egasi bo'lib ,wer ?, was?(kim? yoki nima?)so'rog'iga javob bo'ladi.

Ega ergash gaplar ko'incha wer(kim), was(nima) olmoshlari ,shuningdek, daß yoki ob bog'lovchilari vositasi bilan bosh gapga bog'lanadi. Bunday gaplar o'zbek tiliga turlicha tarjima qilinadi:

Wer gut arbeitet, bekommt Prämie.(Wer bekommt Prämie?)

Kim yaxshi ishlasa, mukofot oladi.

Es ist bekannt, daß er fleißig ist.(Was ist bekannt?)

Uning tirishqoqligi ma'lum.

ESLATMA.ega ergash gap kam ishlatiladi.

§122. Kesim ergash gap.(Der Prädikativsatz)

Kesim ergash gap bosh gapning ot kesimi bo'lib, bosh gapning so'roq olmoshi yoki da bog'lovchisi bilan bog'lanadi.

Kesim ergash gaplar wer ist das Subjekt? (ega kim?), was ist das Subjekt?(ega nima?) wie ist das Subjekt?(ega qanday?)so'roqlariga javob bo'ladi, masalan:

Unser Glück ist es, daß wir Usbekischen sind.

Bizning eng katta baxtimiz-uzbek bolganimizdir.

ESLATMA. Kesim ergash gap kam qo'llanadi.

§123. To'ldiruvchi ergash gap(Der Objektsatz).

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapning to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.to'ldiruvchi ergash gap odatda was? (nimani?) so'rog'iga javob bo'ladi.

Nemis tilida to'ldiruvchi ergash gaplarda (-ku), bog'lovchisi ,wer(kim),was(nima)olmoshlari ,wo (qayerda) wann (qachon),wie (qanday) kabi ravishlar bilan bosh gapga bog'lanadi. Nemischa to'ldiruvchi ergash gapalar o'zbek tiliga odatda –ki vositasida bog'langan gap yoki sifatdosh orqali tarjima qilinadi.

Ich glaube , daß ich die Prüfungen gut bestehen werde (was glaube ich?)

§124. Aniqlovchi ergash gap (Der Attributsatz).

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi biror gapdagi biror otni aniqlab,welcher?, was für ein? qanday? so'roqlariga javob bo'ladi.

Aniqlovchi ergash gap odatda bosh gapdagi otning rodiga ko'ra der, die, das ba'zan welcher, welche ,welches nisbiy olmoshlari bilan bog'lanadi.

Nemis tilidagi aniqlovchi ergash gapalar o'zbek tiliga asosan sifatdosh bilan tarjima qilinadi, masalan:

Das Buch, das (welches)ich lese, ist interessant.(welches Buch ist interessant?)

Men o'qiyotgan kitob qiziq.

Aniqlovchi ergash gaplarni bog'laydigan der die das nisbiy olmoshlari boshqa kelishiklarda ham kela oladi, masalan:

Das Institut, wo (in dem)ich lerne ,liegt im Zentrum der Stadt.

Men o'qiyotgan institut shaxarning markazidadir.

§125. Hol ergash gap(Adverbialsätze).

Hol ergash gaplar bosh gapdagi ish –harakatning qay holatda bajarilganini bildiradi.

Hol ergash gaplar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.O'rin ergash gap (der Lokalsatz)
- 2.Payt ergash gap (der Temporalsatz)
- 3.Sabab ergash gap (der Kausalsatz)
- 4.Shart ergash gap(Konditionalsatz)

5. Maqsad ergash gap (der Finalsatz)

6. Ravish ergash gap (der Modalsatz)

7. To'siqsiz – shart ergash gap (der Konzessivsatz)

§126. O'rin ergash gap (Der Lokalsatz)

Bosh gapdagi ish-harakatning o'rnini bildirgan ergash gaplar o'rin ergash gap deb ataladi.

O'rin ergash gap wo? (qayerda?), woher (qayerdan?) so'roqlariga javob bo'lib, wo, wohin, woher kabi nisbiy ravishlar bilan bosh gapga bog'lanadi, masalan:

Wo eine gute Disziplin ist, da geht die Arbeit gut.

(wo geht die Arbeit gut?)

Qayerda intizom bo'lsa, u yerda ish yaxshi bo'ladi.

§127. Payt ergash gap (Der Temporalsatz).

Bosh gapdagi ish –harakatning paytini bildirgan ergash gaplar payt ergash gap deb ataladi.

Payt ergash wann? (qachon?) , seit wann?(qachondan beri?), bis wann?(qachongacha?) kabi so'roqlarga javob bo'lib, als , wenn, während, nachdem, bis seit(dem) bog'lovchilari bilan bosh gapga bog'lanadi:

Als ich nach Hause kam, war es schon dunkel.

Men uyga kelgan vaqtimda, qorong'u tushgan edi.

§128. Payt ergash gaplarda bog'lovchilar qo'llanishi. (Gebrauch der Konjunktionen Temporalsatz).

Als bog'lovchisi o'tgan zamonda bir marta bo'lib o'tgan ish –harakatni ifodalashda qo'llanib, o'zbek tilida o'rin kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshga to'g'ri keladi, masalan:

Als die Stunde zu Ende war, gingen die Schüler nach Hause.

(Wann gingen die Schüler nach Hause?)

Dars tamom bo'lganda, o'quvchilar uyga ketdi.

§129. Sabab ergash gap (Der Kausalsatz).

Bosh gapdagi ish –harakatning sababini bildirgan ergash gaplar sabab ergash gap deyiladi.

Sabab ergash gap warum?(nima sababdan?)so'rog'iga javob bo'lib,bosh gap bilan da yoki weil (chunki , -gani uchun) bog'lovchilari vositsida bog'lanadi,masalan:

Er kommt heute nicht ,weil er krank ist .

(Warum kommt er heute nicht).

U bugun kelmaydi, chunki u kasal.

§130. Shart ergash gap (Der Konditionalsatz).

Shart ergash gap bosh gapdagi ish –harakatning shartini bildirib, unter welcher Bedingung? (qanday shart bilan?) so'rog'iga javob bo'ladi va wenn yoki falls (agar ,mabodo)bog'lovchisi bilan bosh gapga bog'lanadi .Shart ergash gap o'zbek tiliga asosan shart fe'li orqali tarjima qilinadi , masalan:

Falls du mich nicht zu Hause triffst, gib mein Buch meiner Mutter ab.

Mabodo men uyda bo'lmasam, kitobimni onamga ber.

Ba'zan shart ergash gaplar bog'lovchisiz bo'lishi mumkin. U vaqtda ergash gapdagi kesimning o'zgaradigan qismi gap boshida kelib, odatda bosh gap esa ergash gapdan keyin turadi.

§131. Maqsad ergash gap (der Finalsatz)

Bosh gapdagi ish –harakatning maqsadini bildiradigan ergash gaplar maqsad ergash gap deb ataladi.

Maqsad ergash gaplar bosh gap bilan damit (...deb) bog'lovchisi bilan bog'lanib, wozu? (nega?, nima uchun?,nima maqsadda?)so'rog'iga javob bo'ladi ,masalan :

Eslatma. Maqsad ba'zan um zu+ Infinitiv birikmasi bilan ham ifodalana oladi:

Um eine Sprache gut zu beherrschen muß man regelmäßig lesen.

Tilni yaxshi o'rganish uchun doimo o'qib tuirsh kerak.

§132. Ravish ergash gap (der Modalsatz)

Bosh gapdagi ish –harakatning qay holda bo'layotganligini bildirgan ergash gaplar ravish ergash gap deb ataladi. Ravish ergash gap wie? (qanday? Qanday qilib?), auf welche Weise? (qay tarzda?) kabi so'roqlariga javob bo'lib,bosh gapga in dem bog'lovchisi bilan ,agar ish –harakat qiyos qilinsa,wie yoki als bog'lovchisi bilan bog'lanadi:

§133. To'siqsiz shart ergash gap (der Konzessivsatz)

Bosh gapning mazmuniga ko'ra qarama qarshi bir holatni bildirgan ergash gaplar to'siqsiz shart ergash gap deyiladi.

To'siqsiz shart ergash gap bosh gapga obwohl, obgleich, trotzdem, wenn auch kabi bog'lovchilar bilan bog'lanib ,trotz welchen umstandes? (nimaga qaramasdan?) so'rog'iga javob bo'ladi. O'zbek tilida to'siqsiz shart ergash gaplar odatda garchi so'zi va shart fe'lidan keyin ham so'zini keltirish bilan bosh gapga bog'lanadi:

§134. Tinish belgilari (Die Interpunktionszeichen).

Nemis tilida tinish belgilarining qo'llanishi asosan o'zbek tilidagi o'xshaydi.

1.Nuqta (Der Punkt)

- 1)Nuqta darak gapning oxiriga qo'yiladi, masalan: Karim ist Lehrer.
- 2)Raqam bilan yozilgan tartib sonlardan keyin nuqta qo'yiladi: Die 3. Klasse

2. So'roq belgisi (Das Fragezeichen).

So'roq belgisi so'roq gaplarning oxiriga qo'yiladi: Was für einen Film brauchen Sie?

3.Undov belgisi (Das Ausrufezeichen).

Xis –hayajon bildirgan undov gaplar yoki buyruq gaplarning oxiriga undov belgisi qo'yiladi:

Wiederholen Sie bitte den letzten Satz!

4.Ikki nuqta (Das Kolon).

- 1)Ikki nuqta ko'chirma gaplardan oldin qo'yiladi: Der Lehrer sagt: "wir haben heute eine Versammlung".
- 2)Uyushiq bo'laklardan avval umumlashtiruvchi so'z bo'lsa , ikki nuqta qo'yiladi:
Im Garten sind : Apfelbäume ,Birnbäume

5. Vergul (das Komma).

Vergul asosan quyidagi hollarda qo'yiladi:

- 1)ergash gaplarni bosh gapdan ajratish uchun: *er sagt*, da er rechtzeitig kommt.
- 2)bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi mustaqil gaplarni bir-biridan ajratish uchun: der Frühling kommt, die Blumen blühen, die Vögel singen.
- 3)undalmani ajratish uchun: Guli, komm an der Tafel!

4)tasdiq bildiruvchi ja(ha) inkor bildiruvchi nein (yo'q) so'zlarini ajratish uchun:
Sprechen Sie deutsch! Ja, ich spreche deutsch.

6. Qo'shtirnoq. (Das Gansfußchen).

Qo'shtirnoq ko'chirma gapni ajratishda qo'yiladi: die Lehrerin sagt:”Lernen,lernen, lernen”.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Menschen. Deutsch als Fremdsprache Kurs-und Arbeitsbuch. A1.1. Sabine Glas-Peters, Angela Pude, Monika Reimann. Hueber Verlag, 2012.
2. Menschen. Deutsch als Fremdsprache Kurs-und Arbeitsbuch A1.2. Sabine Glas-Peters, Angela Pude, Monika Reimann. Hueber Verlag, 2012.
3. S. Saidow. Deutsche Grammatik in Übungen. Т. Ўзбекистон нашриёти, 2001.
4. Hilke Dreyer – Richard Schmitt. Lehr – und Übungsbuch der deutschen Grammatik. Ismaning: Hueber Verlag, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Chet tillar bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi 124-sonli qarori
- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi “Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 610-sonli qarori
- 4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 avgustdagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli qarori

Mundarija (Inhaltsverzeichnis)
Morfologiya (Morphologie)
Ot (Das Substantiv)

Soʻz turkumlari

§ 1. Otlarning maʼno jihatidan turlari	3
§ 2. Otlarning tuzilish jihatidan turlari	4
§ 3. Mujskoy roddagi otlarning qoʻshimchalari.....	4
§ 4. Jenskiy roddagi otlarning qoʻshimchalari	5
§ 5. Sredniy roddagi otlarning qoʻshimchalari.....	6
§ 6. Qoʻshma otlar.....	7
§ 7. Substantivivizatsiya yoʻli bilan ot yasash.....	8
§ 8. Otlarning koʻpligi	9
§ 9. Otlarning turlanishi.....	12
§ 10. Otlarning kuchli turlanishi.....	13
§ 11. Otlarning kuchsiz turlanishi.....	13
§ 12. Jenskiy turlanish.....	14
§ 13. Otlarning koʻplikda turlanishi.....	14
§ 14. Atoqli otlarning turlanishi.....	16

II.Artikl (Der Artikel)

§ 15. Artiklning turlari.....	18
§ 16. Artiklning qoʻllanishi.....	18
§ 17. Artiklning qoʻllanmaslik holatlari.....	20
Übungen zum Thema “Das Artikel”.....	22

Teste zum Thema “Das Artikel”.....	23
------------------------------------	----

III. Olmosh (Das Pronomen)

§ 18. Kishilik olmoshlari.....	27
§ 19. Oʻzlik olmoshlari.....	28
§20. Egalik olmoshlari.....	29
§21. Koʻrsatish olmoshlari.....	31
§22. Soʻroq olmoshlari.....	32
§23. Nisbiy olmoshlar.....	33
§24.Noaniq olmoshlar.....	33
§25Shaxsiz olmoshlar.....	34
Übungen zum Thema “Das Pronomen”.....	35

IV.Sifat (Das Adjektiv)

§26. Sifatlarning yasalishi.....	38
§27. Sifatlarning turlanishi.....	38
§28. Sifatlarning kuchsiz turlanishi.....	39
§29. Sifatlarning kuchli turlanishi.....	40
§30. Sifatlarning aralash turlanishi.....	41
§31. Sifat darajalari.....	42
Übungen zum Thema “Das Adjektiv”.....	42

V.Son (Das Numerale)

§32. Sanoq son.....	47
§33. Tartib son.....	49
§34. Kasr son.....	51

VI. Fe'l (Das Verb)

§35. Fe'l haqida ma'lumot.....	51
§36. Fe'llarning ma'no jihatidan bo'linishi.....	51
§37. Fe'llarning ega va to'ldiruvchiga munosabati jihatidan bo'linishi.....	52
§38. Fe'llarning old qo'shimchalari.....	53
§39. Fe'lning noaniq shakli.....	54
§40. Fe'lniing sifatdosh shakllari.....	54
§41. Partizip I ning yasalishi.....	54
§42. Partizip II ning yasalishi.....	55
§43. Fe'llarning tuslanish jihatidan bo'linishi.....	56
§44. Kuchli fe'llar.....	57
§45. Kuchsiz fe'llar.....	57
§46. Präterio-Präsentia fe'llari.....	58
§47. Aralash fe'llar.....	59
§48. Noto'g'ri fe'llar.....	59
§49. Fe'llarning tuslanishi.....	60
§50. Fe'llarning zamonlari.....	60
§51. Fe'lning Präsensda tuslanishi.....	48
§52. Präsensning qo'llanishi.....	60
§53. Imperfektning yasalishi.....	62
§54. Imperfektning qo'lanilishi.....	63
§55. Perfektning yasalishi va qo'llanilishi.....	65
§56. Plusquamperfektning yasalishi va qo'llanilishi.....	67
§57. Kelasi zamon.....	68
§58. Buyruq mayli.....	68
§59. F'el darajalari.....	69
§60. Passivning yasalishi.....	70
§61. Präsens Passiv.....	70
§62. Imperfektiv passiv.....	70
§63. Perfekt passiv.....	70
§64. Plusquamperfekt passiv.....	70
§65. Futurum passivning yasalishi.....	72
§66. Passivning ma'nosi va qo'llanishi.....	72
§67. Fe'l mayllari.....	72
§68. Aniqlik mayli.....	73
§69. Buyruq mayli.....	73
§70. Konjunktiv.....	73
§71. Präsens konjunktiv.....	73
§72. Imperfekt konjunktiv.....	75
§73. Perfekt konjunktivning yasalishi va qo'llanilishi.....	77
§74. Plusquamperfekt konjunktiv.....	78

§75. Futurum konjunktivning yasalishi va qo'llanishi.....	79
§76. Konditionalisning yasalishi va qo'llanishi	79

VII. RAVISH (Das Adverb)

§77. Ravishlarning turlari.....	80
§78. Payt ravishi.....	80
§79. O'rin ravishi.....	81
§80. Holat ravishi.....	81
§81. Sabab ravishi.....	81
§82. Ravishlarning darajalari.....	81

VIII.PREDLOG (Die Präposition)

Predlog haqida ma'lumot

§83. Akkusativ kelishigini talab qiladigan predloglar.....	83
§84. Dativ kelishigini talab qiladigan predloglar.....	83
§85. Genetiv kelishigini talab qiladigan predloglar.....	84
§86. Dativ va Akkusativ kelshiklarini talab qiladigan predloglar.....	84
§87. Predloglarning artikl bilan birikishi.....	85
§88. Gap haqida ma'lumot.....	88
§89. Gapning ma'no jihatidan turlari.....	92
§90. Eganing ifodalanishiga ko'ra turlari.....	92
§91. Gapning tuzilish jihatidan turlari.....	95
§92. Ega va uning ifodalanishi.....	95
§93. Kesim.....	96
§94. Kesimning turlari.....	96
§95. Ega bilan kesimning moslashuvi.....	96
§96. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.....	97
§97. To'ldiruvchi.....	97
§98. Vositasiz to'ldiruvchi.....	97
§99. Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi.....	97
§100. Predlogli to'ldiruvchi.....	98
§101. Aniqlovchi	98
§102. Aniqlovchining ifodalanishi.....	98
§103. Yoyiq aniqlovchi.....	99
§104. Hol	99
§105. Payt holi.....	99
§106. O'rinholi.....	100
§107. Ravish holi.....	100
§108. Sabab va maqsad holi	101
§109. Sodda gapda so'z tartibi.....	102
§110. Eganing o'rni.....	101
§111. Gapda kesimning o'rni	102
§112. So'roq gapda kesimning o'rni	102
§113. Gapda to'ldiruvchi va holning o'rni	103
§114. Gapda nicht va kein ning o'rni.....	104

§115. Gapda aniqlovchining o'ri.....	104
Qo'shma gap (der zusammengesetzte Satz)	
§116. Bog'langan qo'shma gap.....	105
§117. Ergashgan qo'shma gap.....	105
§118. Ergash gapning o'ri	105
§119. Ergash gapda so'z tartibi.....	106
§120. Ergash gaplarning turlari.....	106
§121. Ega ergash gap.....	106
§122. Kesim ergash gap.....	107
§123. To'ldiruvchi ergash gap.....	107
§124. Aniqlovchi ergash gap.....	107
§125. Hol ergash gap	108
§126. O'rin ergash gap.....	108
§127. Payt ergash gap	108
§128. Payt ergash gapda bog'lovchilar qo'llanilishi.....	108
§129. Sabab ergashgap.....	109
§130. Shart ergash gap.....	109
§131. Maqsad ergash gap.....	109
§132. Ravish ergash gap.....	110
§133. To'siqsiz – shart ergash gap.....	110
§134. Tinish belgilari.....	110
Adabiyotlar ro'yhati.....	112